Цель: логистический регрессионный анализ наиболее значимых предикторов дестабилизации коронарного атеросклероза, выявляемой мультиспиральной компьютерной коронароангиографией. **Материал и методы:** клинические исследования проведены у 152 пациентов с ИБС обоего пола в возрасте от 48 до 73 лет (средний возраст $61,9 \pm 1,31$). Основную группу составили 73 пациента с нестабильной стенокардией. В группу сравнения включены 79 больных со стабильной стенокардией напряжения III ФК. На момент проведения исследования группы были сопоставимы по возрасту, полу, длительности ИБС и частоте сопутствующих заболеваний. **Результаты:** использование разработанной новой медицинской технологии «Способ прогнозирования риска развития неблагоприятных сердечно-сосудистых событий у больных с ишемической болезнью сердца с ишемической и/или постинфарктной дисфункцией миокарда на фоне хронической сердечной недостаточности» позволяет осуществлять объективную оценку тяжести заболевания и определять риск развития неблагоприятных сердечно-сосудистых событий, что приведет к сокращению сроков госпитализации и уменьшению затрат государства на лечение и профилактику социально значимой патологии. **Выводы:** персонализированный подход ранней диагностики с помощью электронной прогнозирующей платформы позволит уменьшить частоту манифестаций заболевания.

Ключевые слова: ЭВМ-программа, ишемическая болезнь сердца, коронарный атеросклероз, МСКТ-ангиография.



REVMATOIDLI ARTRITDA GOLIMUMAB BILAN OLIB BORILGAN KOMPLEKS TERAPIYANING BO'G'IM DESTRUKSIYASIGA TA'SIRINI O'RGANISH

Abdurazzakova D.S., Matchanov S.X.

ВЛИЯНИЕ КОМПЛЕКСНОЙ ТЕРАПИИ ГОЛИМУМАБОМ НА СУСТАВНУЮ ДЕСТРУКЦИЮ У БОЛЬНЫХ РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ

Абдураззакова Д.С., Матчанов С.Х.

STUDY OF THE EFFECT OF COMPLEX THERAPY WITH GOLIMUMAB IN RHEUMATOID ARTHRITIS ON ARTICULAR DESTRUCTION

Abdurazzakova D.S., Matchanov S.X.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Цель: изучение влияния комплексной терапии голимумабом на деструкцию суставов у больных ревматоидным артритом. **Материал и методы:** в исследование были включены 80 пациентов с ревматоидным артритом, из них 64 (80%) женщины и 16 (20%) мужчин, находившихся на лечении в отделениях ревматологии, кардиоревматологии и артрологии многопрофильной клиники Ташкентской медицинской академии. **Результаты:** оценка по шкале ВАШ интенсивности боли показала, что по сравнению с монотерапией метотрексатом у больных, получавших метотрексат + голимумаб, отмечалось двукратное уменьшение боли. После монотерапии метотрексатом в дозе 15 мг в неделю у больных 1-й группы рентгенологическая стадия по классификации Стейнброекера увеличилась с 2,4 до 3,4 (26,6%), а на фоне комбинированной базисной терапии – с 2,5 до 2,7 (8%). **Выводы:** комбинированная терапия голимумабом более эффективно снижает активность заболевания у пациентов с ревматоидным артритом по сравнению с монотерапией метотрексатом.

Ключевые слова: ревматоидный артрит, метотрексат, голимумаб, деструкция суставов.

Objective: To study the effect of complex therapy with golimumab on joint destruction in patients with rheumatoid arthritis. **Material and methods:** The study included 80 patients with rheumatoid arthritis, of which 64 (80%) were women and 16 (20%) men, who were treated in the departments of rheumatology, cardiorheumatology and arthrology of the multidisciplinary clinic of the Tashkent Medical Academy. **Results:** VAS assessment of pain intensity showed that, compared with methotrexate monotherapy, patients receiving methotrexate + golimumab experienced a two-fold reduction in pain. After monotherapy with methotrexate at a dose of 15 mg per week in patients of group 1, the radiological stage according to the Steinbrocker classification increased from 2.4 to 3.4 (26.6%), and against the background of combined basic therapy - from 2.5 to 2.7 (8%). **Conclusions:** Golimumab combination therapy is more effective in reducing disease activity in patients with rheumatoid arthritis compared to methotrexate monotherapy.

Key words: rheumatoid arthritis, methotrexate, golimumab, joint destruction

Ревматоид артрит (РА) – бирiktiruvchi to'qimaning rnoaniq etiologiyali tizimli autoimmun yallig'lanish kasalligi bo'lib, periferik bo'g'imlarning simmetrik surunkali eroziv artriti (sinovit bilan) va ichki a'zolarining tizimli zararlanishi bilan xarakterlanadi [9]. Aholi orasida uchrashi 0,5-2% ni tashkil qiladi. Ayollarda erkaklarga qaraganda 2-2,5 marta ko'p uchraydi. Kasallik aholi orasida keng tarqalganligi va bemorlarning yashash sifatini sezilarli darajada o'zgartirishi tufayli unga katta ahamiyat qaratiladi [1,3,7]. World Health Organization ma'lumotlariga kora dunyo boyicha 20 million-dan ortiq odam revmatoid artriti kasalligi bilan nazoratda turadi [2,6,12]. Kasallik boshlanganidan 3-5 yil o'tib deyarli bemorlarning yarmida mehnatga layoqatsizlik va yashash muddatining qisqarishiga olib kelishi mumkin [4,9]. Shu sababli hozirgi kunda RA ni erta tashxislash va uni davolashda yangi bazis preparatlarni izlab topish va qo'llash muhim hisoblanadi.

RA farmakoterapiyasidan asosiy maqsad, bu kasallikni uzoq vaqtli remissiyasiga yoki kasallikning past faollikda kechishiga erishish va hayot sifatini imkon qadar saqlab qolish hisoblanadi. Buni amalga oshirishda

esa monoterapiyaga nisbatan kompleks terapiyaning ahamiyati kata [7,8,11,12].

Hozirgi kunda kasallikni davolashda biologik preparatlarning kashf qilinishi katta yutuqlardan biri hisoblanadi. Shunday preparatlardan biri golimumab inson monoklonal antitanasi rekombinatsiya bo'lib, α -o'sma nekrozi omili (α -O'NO) retseptorlarini ingibirlaydi. Bu preparat RA bilan kasallangan bemorlarda klinik simptomlarni kamaytirish va rentgenologik progressni susayishiga olib keladi [10].

Tadqiqot maqsadi

Ревматоид артрит bilan kasallangan bemorlarda golimumab bilan olib borilgan kompleks terapiyaning bo'g'im destruksiyasiga ta'sirini o'rganish hisoblanadi.

Material va usullar


Klinik tadqiqotlar 2022-2023 yillar davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining ko'p tarmoqli klinikasi revmatologiya, kardiorevmatologiya va artrologik ixtisoslashgan ambulator davolash kursi bo'limlarida olib borildi. Tadqiqotga revmatoid artriti bilan kasallangan 80 nafar bemor olindi. Bemorlarning 64 nafarini (80%) ayollar va 16 nafarini (20%) erkaklar tashkil qildi.

Kuzatuvdagi bemorlar ikki guruhga bo'lib o'rganildi. Birinchi guruh 40 nafar bemorlar yallig'lanishga qarshi bazis davo sifatida haftasiga 15 mg metotreksat va ikkinchi guruh 40 nafar bemorlar yallig'lanishga qarshi bazis davo maqsadida haftasiga 15 mg metotreksat bilan birgalikda har oyda teri ostiga 50 mg golimumab qabul qiladi. Davolash natijalari 6 oylik intervalda solishtirildi.

Kuzatuvdagi bemorlarda eritrotsitlar cho'kish tezligi (ECHT), Disease Activity Score-28 (DAS-28), visual analoglo shkala (VASH) indeksi va rentgenologik o'zgarishlar solishtirib ko'rildi.

Kuzatuvdagi bemorlarda ECHTning davodan oldingi va davodan keyingi dinamikasi keltirilgan (1-rasm).

ECHT o'zgarishi




1-rasm. Eritrotsitlar cho'kish tezligi dinamikasi

1-rasmdan ko'rinib turibdiki 1-guruh 40 nafar bemorning o'rtacha ECHT ko'rsatkichi 25,65mm/soat bo'lib, u monoterapiyadan keyin 21,55 mm/soatgacha o'zgargan.

ECHT ko'rsatkichlari 16% ga o'zgargan. 2-guruh 40 nafar bemorning o'rtacha ECHT ko'rsatkichi 25,9 mm/soat bo'lib, u monoterapiyadan keyin 19,7 mm/soatgacha kamaygan. ECHT ko'rsatkichlari 24% ga o'zgargan.

Kuzatuvdagi bemorlarda DAS-28ning davodan oldingi va davodan keyingi dinamikasi keltirilgan (2-rasm).

DAS28 ko'rsatkichi o'zgarishlari



2-rasm. Disease Activity Score-28 (DAS28) ko'rsatkichi dinamikasi

2-rasmdan ko'rinib turibdiki 1-guruhda metotreksat qabul qilish davomida kasallik faollig' ko'rsatkichi – Disease Activity Score-28 (DAS28) o'rtacha 0,84 o'lchov birligiga kamaygan. Metotreksat va golimumab qabul qilinganda esa bu ko'rsatkich kamayishi 1,26 o'lchov birligiga ni tashkil qilgan. Kompleks terapiyaning ijobiy effekti 1,5 barobar yuqoriroq bo'lgan.

1-jadvalda kuzatuvdagi bemorlarda VASH indeksining davodan oldingi va davodan keyingi dinamikasi keltirilgan.

1-jadval

Kuzatuvdagi bemorlarda VASH indeksining davodan oldingi va davodan keyingi dinamikasi ($M \pm SD$; $p < 0,001$)


Ko'rsatkichlar	Boshlang'ich ko'rsatkichlar (n=80)	1-guruh (n=40)	2-guruh (n=40)
VASH tinchlikda, mm	42,0±16,4	16,6±8,4*	5,2±1,5**
VASH harakatda, mm	78,9±14,2	36,9±15,2*	17,6±4,0**

Izoh: ($M \pm SD$; * $p < 0,05$, ** $p < 0,01$, Vilokson kriteriyasi bo'yicha).

Yuqoridagi jadvalda Vizual og'riq shkalasi (VASH) o'zgarishlari ko'rsatilgan. Bunda tinchlikdagi VASH ko'rsatkichi 1-guruhda 42,0±16,4mm dan 16,6±8,4 mm gacha ($p < 0,05$), 2-guruhda 5,2±1,5 mm gacha ($p < 0,01$) o'zgardi. Harakatda esa 1-guruhda 78,9±14,2 mm dan 36,9±15,2 mm gacha ($p < 0,05$), 2-guruhda 17,6±4,0 gacha ($p < 0,01$) o'zgardi. Ya'ni metotreksat bilan o'tkazilgan monoterapiyaga nisbatan, metotreksat + golimumab o'tkazilgan terapiyada bemorlar og'riqni 2 barobar sekinlashganini qayt etishdi.

Kuzatuvimizdagi bemorlarda bo'g'im destruksiyasini o'rganish maqsadida rentgenologik o'zgarishlar dinamikasini Shteynbroker rentgenologik bosqichlari bo'yicha tahlil qilganimizda quyidagi natijalar olindi (3-rasm).

3-rasmdan ko'rinib turibdiki, 1-guruh bemorlarda haftasiga 15 mg metotreksat bilan o'tkazilgan monoterapiyadan keyin Shteynbroker tasnifi bo'yicha bu guruh bemorlarning rentgenologik bosqichi 2,4 dan 3,4 gacha (26,6%) kuchaygan. Kombinirlangan bazis terapiya fonida 2-guruh bemorlarida rentgenologik bosqich 2,5 dan 2,7 ga (8%) ko'tarilgan.



3-rasm. Kuzatuvdagi bemorlar rentgenologik o'zgarishlari dinamikasi

O'tkazilgan tadqiqot natijasida shunday xulosa-ga kelish mumkinki, golimumab preparati bilan kombinirlangan terapiya RA li bemorlarda metotreksat bilan o'tkazilgan monoterapiyaga nisbatan kasallik faolligini samaraliroq kamaytirishi mumkin. Shu bilan bir qatorda destruktiv o'zgarishlar golimumab bilan o'tkazilgan

kombinirlangan terapiyada metotreksat bilan o'tkazilgan monoterapiyaga nisbatan sezilarli darajada kamligi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. Абдураззакова Д.С. Применение голимумабом у больных ревматоидным артритом / Д.С. Абдураззакова, С.Х. Матчанов, К.К. Алиева // Дни ревматологов в Санкт-Петербурге 2022. – С. 6-7.
2. Балабанова Р.М. Динамика пятилетней заболеваемости болезнями костно-мышечной системы и их распространенности среди взрослого населения России за 2013–2017 гг / Р.М. Балабанова, Т.В. Дубинина // Современная ревматология. – 2019. – №13(4). – С. 11-17.74 ISSN2181-7812 www.tma-journals.uz
3. Белов Б.С. Коморбидные инфекции у больных ревматоидным артритом: Status praesens // Современная ревматология. – 2019. – № 13(3). – С. 102-108.
4. Сорока Н.Ф. Ревматоидный артрит, ассоциированный с инфекцией Chlamydia pneumoniae // Здоровоохранение. Healthcare. 2019. – №2. – С. 5-10.
5. Каратеев Д.Е. Современные принципы ведения больных с ревматоидным артритом // Медицинский совет. – 2017. – №17. – С.92-100.
6. Насанов Е.Л., Мазуров В.И., Каратеев Д.И. и др. Проект рекомендаций по лечению ревматоидного артрита. Общероссийской общества организации «Ассоциация ревматологов России» - 2014 (часть 1) // Научно-практическая ревматология. -2014. -№ 5. -С. 477-494.
7. Насонов Е.Л. Ингибиторы Янус-киназ при иммуно-воспалительных ревматических заболеваниях: новые возможности и перспективы // Научно-практическая ревматология. – 2019. – № 57(1). – С.8-16.
8. Dilrabo A., Seytbay M., Nikolai S. Influence of Chlamydia Infection Associated with Rheumatoid Arthritis on the Activity of the Disease, American Journal of Medicine and Medical Sciences.- 2021.-№3.-Vol.11.-P.240-245. doi: 10.5923/j.ajmms.20211103.17.
9. Dilrabo A., Seytbay M. Impact of Chlamydia infection on quality of life of rheumatoid arthritis patients. International Journal of Advanced Science and Technology. -2020.-№5.-Vol. 29.- P. 1515-1520.

10. Dilrabo A. Influence of CHLAMYDIA infection on the activity of the rheumatoid arthritis / Dilrabo Abdurazzakova, Seytbay Matchanov, Nikolai Soroka // International scientific and practical conference CUTTING EDGE-SCIENCE 2022 Shawnee, USA. 21-22p. DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.7148584>.

11. Nargiza A., Sevara M., Elnora D., Gulnoza R. Lipid profile in patients with rheumatoid arthritis on the background of basic treatment. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) -2022.- №1.-Vol 14.- P.3189-3191. DOI: 10.9756/INT-JECSE/V14I1.382 ISSN: 1308-5581.

12. World Health Organization, The Global Burden of Disease, 2004 Update. Accessed 13 March 2012. Available from: <http://www.who.int/health>, date of the application 06.09.2018.

РЕВМАТОИДЛИ АРТРИТДА ГОЛИМУМАБ БИЛАН ОЛИБ БОРИЛГАН КОМПЛЕКС ТЕРАПИЯНИНГ БО'Г'ИМ ДЕСТРУКЦИЯСИГА ТА'СИРИНИ О'РГАНИШ

Abdurazzakova D.S., Matchanov S.X.

Maqsad: revmatoid artrit bilan kasallangan bemorlarda golimumab bilan olib borilgan kompleks terapiyaning bo'g'im destruksiyasiga ta'sirini o'rganish. **Material va usullar:** hozirgi kun zamonaviy tibbiyotida RA ni davolashda shu kungacha ma'lum bo'lgan bazis yallig'lanishga qarshi preparatlar bilan bir qatorda, yangi gen injeneriyasi usullari bilan ishlab chiqilgan dori vositalarining ham ahamiyati sezilarli darajada oshib bormoqda. **Natijalar:** bunday preparatlar ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ularning kasallik faolligiga ta'siri yuqori va shuning bilan bir qatorda, inson organizmiga salbiy ta'siri kamroq. Shunday dori vositalaridan biri golimumab bo'lib, maqolada RAli bemorlarda golimumab bilan olib borilgan kompleks davonning bo'g'im destruksiyasiga ta'siri o'rganiladi. **Xulosa:** izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, kasallik erta aniqlab, zamonaviy davo choralarini erta olib borish kasallikni uzoq vaqtli remissiyaga olib kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: revmatoid artrit, metotreksat, golimumab, bo'g'im destruksiyasi.



REVMATOID ARTRITDA BUYRAK ZARLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Agzamova G.S., Jo'raboyeva G.B.

ОСОБЕННОСТИ ПОРАЖЕНИЯ ПОЧЕК ПРИ РЕВМАТОИДНОМ АРТРИТЕ

Агзамова Г.С., Журабоева Г.Б.

FEATURES OF KIDNEY DAMAGE IN RHEUMATOID ARTHRITIS

Agzamova G.S., Zhuraboeva G.B.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Цель: изучение особенностей поражения почек у больных ревматоидным артритом. **Материал и методы:** под наблюдением были 110 пациентов с ревматоидным артритом, которые находились на лечении в ревматологическом отделении центрального многопрофильного медицинского центра Ферганской области и в амбулаторных условиях центральной многопрофильной поликлиники г. Ферганы в 2022-2023 гг. 1-ю группу составили 57 больных ревматоидным артритом с поражением почек, 2-я – 53 пациента с ревматоидным артритом без поражения почек. Контрольная группа – 20 здоровых лиц. **Результаты:** у пациентов с ревматоидным артритом пациентов изучена связь между ТФР-β1 и цистатином-С, которые являются маркерами фиброза. Было подтверждено, что скорость клубочковой фильтрации, являющейся критерием оценки функционального состояния почки, снижается при повышении уровня в крови обоих маркеров. **Выводы:** поражение почек у больных ревматоидным артритом зависит от высокой активности заболевания, при длительности его более 10 лет, возраста больных старше 50 лет и высокой рентгенологической стадии.

Ключевые слова: ревматоидный артрит, поражение почек, TGF-β1, цистатин-С, хроническая болезнь почек.

Objective: To study the characteristics of kidney damage in patients with rheumatoid arthritis. **Material and methods:** 110 patients with rheumatoid arthritis were observed and were treated in the rheumatology department of the central multidisciplinary medical center of the Fergana region and in the outpatient setting of the central multidisciplinary clinic in Fergana in 2022-2023. The 1st group consisted of 57 patients with rheumatoid arthritis with kidney damage, the 2nd group – 53 patients with rheumatoid arthritis without kidney damage. Control group – 20 healthy individuals. **Results:** The relationship between TGF-β1 and cystatin-C, which are markers of fibrosis, was studied in patients with rheumatoid arthritis. It was confirmed that the glomerular filtration rate, which is a criterion for assessing the functional state of the kidney, decreases with increasing blood levels of both markers. **Conclusions:** Kidney damage in patients with rheumatoid arthritis depends on the high activity of the disease, with a duration of more than 10 years, the age of patients over 50 years old and a high radiological stage.

Key words: rheumatoid arthritis, kidney damage, TGF-β1, cystatin-C, chronic kidney disease.

Rевматoid artrit (RA) – biriktiruvchi to'qimaning Retiologiyasi noma'lum surunkali yallig'lanish kasalligi bo'lib, mayda va yirik bo'g'imlarning simmetrik zararlanishi hamda turli xil organ va sistemalarning shikastlanishi bilan kechadigan, shuningdek, bemorlarning umr ko'rish davomiyligining pasayishiga va nogironlikka olib keladigan autoimmun kasalligi hisoblanadi (Y.L.Nasonov, N.V.Chichasova, N.J.Goodson, N.J.Wiles, M.Lunt va boshqalar). RA tizimli rivojlanib boruvchi kasallik bo'lganligi sababli uni aniqlash va davolashda bo'g'imlardan tashqari ichki a'zolar zararlanishini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot maqsadi

Rевматoid artrit tizimli zararlanish bilan kechadigan bemorlarda patologik jarayonda eng ko'p zararlanadigan organ buyraklar hisoblanadi. Bo'g'imlar va bo'g'imdan tashqari tizimlarni zararlaydigan, tez nogironlikka olib keladigan va turli xil deformatsiyalarga sabab bo'ladigan RA kasalligi bilan og'rikan bemorlarning buyragida turli patologik o'zgarishlar bo'ladi. RAda buyrak shikastlanishi buyrak funksiyasining buzilishi, o'tkir (ayniqsa, dori genezidagi nefropatiya) va surunkali buyrak kasalligining rivojlanishiga olib keladi [E.M.Tareev, I.A.Borisov, 1983]. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, RAda buyrak zararlanishi 5-50% bemorlarda uchraydi [6,11]. Olimlar M.Boers, A.M.Croonen, B.A.Dijkmanlarning

fikricha, RAda buyrak shikastlanishi 35-73% bemorlarda uchraydi [2]. Bu kasallikka chalingan bemorlarning yarmiga yaqini besh yil ichida mehnat qobiliyatini yo'qotadi. Bemorlarning 70 % buyraklar bilan bog'liq asoratlar yuzaga keladi. RAagi barcha nefrologik kasalliklarning klinik va morfologik shakllarining xilma-xil ko'rinishlari uchrab, ularning paydo bo'lishi bir necha xil omillarga bog'liq bo'lgani bilan, lekin barchasi buyrakning funksional holatiga ta'sir qilib, glomerulyar filtratsiya tezligining <60 ml/min/1.73m² dan kamayishi natijasida bemorlarda surunkali buyrak kasalligi rivojlanishiga sabab bo'ladi. Surunkali buyrak kasalligida glomerulyar filtratsiya tezligining kamayishi RAli bemorlarda RAsiz bemorlarga nisbatan ko'p uchrashi aniqlangan. Fikrimizning isboti sifatida bir guruh olimlarning tadqiqotlarida aniqlanishicha, RAda surunkali buyrak kasalligining tarqalishi 24,5%ni tashkil etadi. [5]. Tadqiqotchi olim S.V.Moiseev xulosalariga ko'ra bemorlarda RAning tizimli yoki bo'g'imdan tashqari ko'rinishlari (revmatoid tugunlar, interstitsial o'pka kasalligi, buyrak shikastlanishi, revmatoid vaskulit va boshqalar) uchrashi, bemorlarning funksional faolligining yomonlashishiga, nogironlikka va xatto bemorlarning o'limiga olib kelishi mumkin. Bunday paytda kompleks davo choralari ko'rilmasa, kasallikning vaqtida oldi olinmasa, surunkali buyrak kasalligi paydo bo'lib,

hattoki, bemorlar o'limiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun bemorlarga davolash taktikasini tanlashda bo'g'imdan tashqari shikastlanishlarni ham e'tiborga olish lozim.

Material va usullar

RA tashxisi aniqlangan 110 nafar bemor va nazorat guruhiga 20 nafar sog'lom shaxslar qamrab olindi. Tadqiqot Farg'ona viloyat markaziy ko'p tarmoqli tibbiyot markazidagi revmatologiya bo'limida statsionar va Farg'ona shahar markaziy ko'p tarmoqli poliklinikasida ambulator sharoitda 2022-2023-yillar davomida olib borildi. Tadqiqotga olingan bemorlarga revmatoid artrit tashxisi Amerika revmatologlar jamiyati va Yevropa revmatizmga qarshiligada (ACR/EULAR2010) qabul qilingan tasnif mezonlariga asosanib qo'yildi. Ushbu tadqiqotda quyidagi usullar: so'rab surishtirish, umumiy klinik-laborator tahlillar, DAS-28, VASH va HAQ indeksi orqali kasallikning faolligi aniqlandi, instrumental tekshiruvlardan bo'lgan R-grafiya usulidan va statistik

usullar qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida bemorlar 3 guruhga ajratildi: I guruhga 57 nafar RA buyrak zararlanishi bilan (RA(+B)) bo'lgan bemorlar; II guruhga 53 nafar RA buyrak zararlanishisiz (RA(-B)) kechgan bemorlar; III nazorat guruhiga esa 20 nafar sog'lom shaxslar tanlab olindi.

Natijalar va muhokama

Yuqoridagi o'tkazilgan tekshiruvlardan kelib chiqqan holda, RAli bemorlarda buyrak shikastlanishi bilan RA kasalligining klinik kechishidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi. Tadqiqotga olingan RAli bemorlarda kasallikning faollik belgilari yuqori bo'lganda buyrak shikastlanishining uchrashi ortib borishi kuzatildi. Tadqiqotga olingan bemorlarning ikkala guruhida ham RA kasalligining faollik ko'rsatkichlari aniqlandi va ular orasidagi farqlanish solishtirildi. Ikkala guruhdagi bemorlar orasidagi ko'rsatkichlar quyidagi jadvalda berildi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot guruhlarida RA kasalligining faollik bo'yicha ko'rsatkichlari


	Revmatoid artrit buyrak zararlanishi bilan, n=57	Revmatoid artrit buyrak zararlanishisiz, n=53	P
DAS-28	4,8±0,12	3,3±0,10	<0,001
ECHT mm/soat	37,8±1,5	21,3±1,3	<0,001
HAQ	1,8±0,06	1,0±0,08	<0,001
CRO	28,5±2,0	13,0±1,3	<0,001
VASH	6,9±0,25	3,4±0,26	<0,001
SHBS	2,9±0,24	1,3±0,14	<0,001
OBS	4,4±0,30	1,8±0,19	<0,001

I guruhdagi bemorlar orasida kasallik faollik ko'rsatkichi DAS-28 orqali tahlil qilinganda, ular orasida kasallik remissiyasi kuzatilmadi, past faollik darajasi 11 nafar –19,3% bemorda kuzatildi, o'rtacha faollik darajasi 16 nafar –28% bemorda, yuqori faollik esa 30 nafar – 52,7% bemorlarda aniqlandi. II guruhdagi bemorlarda esa kasallik faollik ko'rsatkichi DAS-28 orqali tahlil qilinganda, ular orasida kasallik remissiyasi 12 nafar – 22,6% bemorda, past faollik darajasi 17 nafar – 32,07% bemorda kuzatildi, o'rtacha faollik darajasi 24 nafar – 45,33% bemorda kuzatildi, yuqori faollik esa II guruh bemorlarida aniqlanmadi. I guruhdagi bemorlarda kasallik faolligi DAS-28 ko'rsatkichi bo'yicha 4,8±0,12 ($p<0,001$) tashkil etdi, II guruhdagi bemorlardagi kasallik faolligi ko'rsatkichi DAS-28 3,3±0,10 ($p<0,001$) ga teng deb aniqlandi va ular o'zaro solishtirilganda orasidagi farqlanish ishonchli deb topildi. Bemorlarda kasallik faolligi qanchalik yuqori bo'lsa, buyrak zararlanishi ham shunchalik ko'p kuzatilishi aniqlandi (1-diagramma).


Bemorlar ECHT I guruhdagi bemorlarda 37,8±1,5 ($p<0,001$) II guruhdagi bemorlarda esa 21,3±1,3 ($p<0,001$) aniqlandi va ular orasidagi farqlanish ishonchli deb topildi. Yuqoridagi tahlillarga ko'ra kasallikning faolligini ko'rsatuvchi DAS-28 ko'rsatkichi va yallig'lanishni belgisi bo'lgan ECHT miqdori RAli buyrak zararlanishi bo'lgan bemorlarda yuqori bo'lishi qayd etildi.

Bemorlarning salomatligini baholash ko'rsatkichi bo'lgan HAQ indeksiga ko'ra I guruhdagi buyrak zararlanishi bo'lgan bemorlar orasida funksional buzilishlar kuzatilmagan bemorlar 1nafar – 1,8%ni, minimal buzilishlar kuzatilgan bemorlar 8-10,5%ni, o'rtacha o'zgarishlar 20 nafarda –38,6%ni, yaqqol buzilishlar esa 28 nafarda – 40,9%ni tashkil etdi. II guruhdagi RAli buyrak zararlanishi aniqlanmagan bemorlarda funksional buzilishlar kuzatilmagan bemorlar 18 nafar – 34%ni, minimal buzilishlar kuzatilgan bemorlar 21 nafar – 40%ni, o'rtacha buzilishlar 11 nafar –20,7%ni, yaqqol buzilishlar esa 3-5,3%ni tashkil etdi.

I guruhdagi RAli buyrak zararlanishi bilan kechgan bemorlarda HAQ indeksi 1,8±0,06ni tashkil etdi, bu esa buyrak zararlanishi bilan RAd bo'g'imlaridagi funksional buzilishlar yaqqol namoyon bo'lishini ko'rsatdi. II guruhdagi bemorlarda esa HAQ indeksi 1,0±0,08 teng bo'lib, bu bemorlarning bo'g'imlarida minimal funksional yetishmovchilik borligini ko'rsatadi, ular orasidagi farqlanish ishonchli ($p<0,001$) bo'ldi. Bu esa kasallik davomiyligi uzoq muddat davom etganida, buyrak disfunktsiyasi bilan kechganda bemorlarning salomatligini baholash ko'rsatkichi bo'lgan HAQ indeksi ham baland bo'lishidan dalolat beradi (2-diagramma).



1-diagramma. Ikkala guruh bemorlarida DAS-28ga ko'ra kasallik faolligi tahlili.



2-daigramma. Tadqiqotga olingan bemorlar guruhining HAQ indeksiga ko'ra tahlili.

RAlI bemorlarda yallig'lanishning yana bir ko'rsatkichi bo'lgan CRO ham tekshirildi va ikkala guruhda ko'rsatkichlari solitirildi. I guruhdagi bemorlarda $28,5 \pm 2,0$ ($-p < 0,001$), II guruhdagi bemorlarda esa $13,0 \pm 1,3$ ($-p < 0,001$) teng bo'lib, ular orasidagi farqlanish ishonchli deb topildi. Bu natijalardan RA bilan og'riqan bemorlarda CROning miqdori uzoq muddat yuqori bo'lishi buyrak disfunktsiyasining kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

RAlI buyrak disfunktsiyasi yuqori bo'lgan I guruhdagi bemorlarda SHBS ($2,9 \pm 0,24$) va OBS ($4,4 \pm 0,30$) kasallik faolligiga mos ravishda, II guruhdagilarga nisbatan yuqori bo'lishi SHBS ($1,3 \pm 0,14$) va OBS ($1,8 \pm 0,19$) qayd etildi va shu sababli ular orasidagi farqlanish ishonchli ($-p < 0,001$) deb topildi.


Ikkala guruhdagi RAlI bemorlarda bo'g'imning holatini baholash uchun R-grafiya tekshiruvi o'tkazildi.

Tadqiqotga olingan ikkala guruh bemorlari rentgenologik ko'rsatkichlari orqali solishtirilganda I guruhdagi bemorlardagi I bosqich bilan II guruhdagi bemorlardagi I bosqich $24,5 \pm 6,0$ ga teng bo'lib, ular orasidagi farqlanish ishonchli deb topildi ($-p < 0,001$), I guruh bemorlaridagi II-bosqich $14,0 \pm 4,6$ bilan II guruh bemorlaridagi II bosqich $39,6 \pm 6,8$ ga to'g'ri keldi va ular orasidagi farqlanish ishonchli ($-p < 0,01$) deb topildi. I guruhdagi bemorlardagi III bosqich $35,1 \pm 6,4$ bilan II gu-

ruh bemorlaridagi III bosqich $17,0 \pm 5,2$ ga teng bo'lib ular orasidagi farqlani nisbatan ishonchli ($-p < 0,05$) deb aniqlandi. I guruh bemorlaridagi IV bosqich $28,1 \pm 6,0$ bilan II guruh bemorlaridagi IV bosqich $5,7 \pm 3,2$ o'zaro solishtirilganda ular orasidagi farqlanish nisbatan ishonchli ($-p < 0,01$) deb topildi. Buyrak zararlanishi aniqlangan I guruhdagi bemorlarda rentgen bosqichining ko'rsatkichlari II guruhdagi bemorlarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi. Bu natijaga ko'ra rentgenologik bosqichi yuqori bo'lgan RAlI bemorlarda buyrak zararlanishi ko'p uchrashi aniqlandi (3-diagramma).

Tadqiqotga olingan ikkala guruhdagi bemorlar kasallikning klinik bosqichiga ko'ra, I guruhning erta bosqichi $43,9 \pm 6,6$ bilan II guruhning erta bosqichi $56,6 \pm 6,9$, ifodalangan bosqichi $21,1 \pm 5,5$ bilan ifodalangan $20,8 \pm 5,6$, kechki bosqichi $35,1 \pm 6,4$ bilan kechki bosqichlari $22,6 \pm 5,8$ o'zaro solishtirilganda ular orasidagi farqlanish ishonchli $-p < 0,05$ deb topildi. RA kasalligining ifodalangan va kechki davrlari kechayotgan bemorlarda buyrak zararlanishi ko'p uchrashi aniqlandi. Bemorlarning I guruhida kasallikning klinik davri bo'yicha olingan natijalariga ko'ra 5 yilgacha bo'lgan davrda $43,9 \pm 6,6$ II guruhga $80,0 \pm 13,3$ nisbatan ishonchli farqlanish aniqlandi ($p < 0,05$), 10 yildan ortgan davrda I guruhni $35,1 \pm 6,4$ II guruhga $10,0 \pm 10,0$ nis-

batan ishonchli farqlanish deb topildi ($p<0,05$) (2-jadval). RAli bemorlarda kasallik davriyligi qancha uzoq



3-diagramma. Ikkala guruhlarda rentgenologik o'zgarishlarga ko'ra solishtirma tahlili

Ikkala guruhda yoshga ko'ra o'tkazilgan statistik tahlillar natijasiga ko'ra I guruh va II guruhdagi bemorlarning solishtirma tahlillari o'rtasida nisbatan

davom etgan bo'lsa shu bemorlarda buyrak zararlanishi ko'p uchrashi aniqlandi.

ishonchli farqlanish aniqlandi ($p<0,05$). Bemorlarni yoshi bo'yicha o'tkazilgan statistik tahlillarga ko'ra: I guruhdagi $51,7\pm1,6$ yosh va II guruhdagi $47,2\pm1,8$ yosh, ko'rsatkichlari orasidagi nisbatan farqlanish ishonchli ($p<0,05$), II guruhdagi va nazorat guruhdagi nisbatan farqlanish ishonchli ($p<0,05$) deb topildi.


Tadqiqotga olingan bemorlarda yosh ortib borgan sari buyrak zararlanishining uchrash chastotasi ham mos ravishda ortib borishi kuzatildi.

Barcha bemorlarda siydik tahlilari o'tkazildi va quyidagi o'zgarishlar kuzatildi: proteinuriya, leykotsituriya, gematuriya. Umumiy siydikdagi har qanday o'zgarishlar siydik sindromi tarkibiga kiritildi. I guruhdagi bemorlarda proteinuriya –30 nafar (52,63%), leykotsituriya – 16 nafar (28,07%), eritrotsituriya –11 nafar (19,3%)da aniqlandi. II guruhdagi bemorlarning siydik tahlillarida o'zgarishlar kuzatilmadi.

2-jadval

		RA (+B), n=57		RA (-B), n=53	
		abs.	%	abs.	%
Klinik davri	5 yilgacha	25	$43,9\pm6,6$	30	$56,6\pm6,9$
	5-10 yilgacha	12	$21,1\pm5,5$	11	$20,8\pm5,6$
	10 yildan ortiq	20	$35,1\pm6,4$	12	$22,6\pm5,8$
Klinik bosqichi	Erta	4	$7,0\pm3,4$	20	$37,7\pm6,7^{^^}$
	Ifodalangan	25	$43,9\pm6,6$	18	$34,0\pm6,6$
	Kechki	28	$49,1\pm6,7$	15	$28,3\pm6,2^{\wedge}$

Izoh: Revmatoid artrit buyrak zararlanishi bilan og'rigan bemorlar ko'rsatkichiga nisbatan farqlanish ishonchli ($\wedge$ - $p<0,05$; $^{^^}$ - $p<0,001$).



4-diagramma. RAda buyrak zararlanishining bemorlar yoshi bo'yicha taqsimlanishi (%)

Hozirgi zamonaviy tibbiyotda buyrakning funksional holatini baholash hamda surunkali buyrak kasalligi bosqichlarini va buyrakdagi fibroz jarayonlarini aniqlashda buyrak fibrozi markyorlarini ya'ni Sistatin-C oqsili va TGF- β 1ni qo'llash keng tatbiq etilmoqda. I gu-

ruhdagi bemorlarning siydik tahlilidagi proteinuriya va qondagi tahlillari: mochevina, kreatinin, Sistatin-C, TGF- β 1 natijalariga II va nazorat guruhlar natijalari solishtirildi. I guruhdagi bemorlarda oqsil miqdori $77,2\pm5,6$ II $11,3\pm4,4$ va nazorat $10,8\pm0,8$ guruhlariga nis-

batan ishonchli ($p<0,05$) farqlanish ekanligi aniqlandi. I guruhdagi bemorlarda mochevina miqdori $12,7\pm1,8$ II $7,4\pm1,6$ va nazorat $6,9\pm1,2$ guruhlariga nisbatan ishonchli ($p<0,05$) farqlanish ekanligi aniqlandi. I guruhdagi bemorlarda kreatinin miqdori $128\pm6,4$ II $96,4\pm2,5$ va nazorat $95\pm2,2$ guruhlariga nisbatan ishonchli ($p<0,05$) farqlanish ekanligi aniqlandi. I guruhdagi bemorlarda KFT miqdori $42,6\pm1,5$ II $89,0\pm1,5$ va nazorat $92,8\pm5,0$

guruhlariga nisbatan ishonchli ($p<0,05$) farqlanish ekanligi aniqlandi. I guruhdagi bemorlarda Sistatin-C miqdori $1,8\pm0,08$ II $0,82\pm0,02$ va nazorat $0,85\pm0,04$ guruhlariga nisbatan ishonchli ($p<0,05$) farqlanish ekanligi aniqlandi. I guruhdagi bemorlarda TGF- β 1 miqdori $32,6\pm3,6$ II $19,4\pm1,6$ va nazorat $19,0\pm3,8$ guruhlariga nisbatan ishonchli ($p<0,05$) farqlanish ekanligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Siydik sindromida buyrak fibrozi markyorlarini baholash

	I guruh (n=57)	II guruh (n=53)	Nazorat guruhi
Proteinuriya г/л	$77,2\pm5,6^*$	$11,3\pm4,4$	$10,8\pm0,8$
Mochevina ммоль/л	$12,7\pm1,8^*$	$7,4\pm1,6$	$6,9\pm1,2$
Kreatinin мкмоль/л	$128\pm6,4^*$	$96,4\pm2,5$	$95\pm2,2$
KFT (мл/мин/1,73 м2)	$42,6\pm1,5^*$	$89,0\pm1,5$	$92,8\pm5$
Sistatin C (мг/л)	$1,8\pm0,08^*$	$0,82\pm0,02$	$0,85\pm0,04$
TGF- β 1 (нг/мл)	$32,6\pm3,6^*$	$19,4\pm1,6$	$19,0\pm3,8$

Изюх: Назорат guruhi kўrsatkichlariga nisbatan ishonchli tafovut ($p<0,05$)

Olingan natijalarga ko'ra, RAli bemorlarda TGF- β 1 va Sistatin-C o'rtasida ishonchli ($p < 0,05$) musbat ($r=0,34$) korrelyatsion bog'liqlik qayd etildi. Bunga ko'ra bemorlar qon tahlillarida Sistatin-C miqdorining ortishi ko'ptokchalar filtratsiyasi kamayganligidan dalolat beradi. Haqiqatdan ham TGF- β 1 bilan ko'ptokchalar filtratsiyasi orasidagi mavjud ishonchli ($p < 0,05$) manfiy bog'liqlik ($r=-0,66$) buni tasdiqlaydi. Ya'ni bemorlar qon tahlillarida TGF- β 1 miqdorining ortishi ko'ptokchalar filtratsiyasi kamayganligidan dalolat beradi.

O'tkazilgan tadqiqotda RAli bemorlarni buyrak faoliyati fibroz markyorlari orqali baholandi va KFT aniqlandi. Bu ko'rsatkichga, asosan, SBK quyidagi guruhlariga bo'lindi:

1-bosqich buyrak zararlanish markyorlari mavjud va KFT me'yorida yoki $u > 90\text{ml/min/1.73m}^2$ bo'lganda,


2-bosqich buyrak zararlanish markyorlari mavjud va KFT $60-89\text{ ml/min/1,73 m}^2$ bo'lganda,

3a va 3b bosqichlar – KFT mutanosib ravishda $45-59$ va $30-44\text{ ml/min/1,73 m}^2$ dan pasayganda,

4 va 5-bosqichlar – KFT mutanosib ravishda $15-29$ va $<15\text{ml/min/1,73 m}^2$ dan pasayganda.

Tadqiqot uchun tanlangan bemorlarning tahlil natijalariga ko'ra SBK kasalligining bosqichlari birinchi guruh bemorlarida quyidagicha aniqlandi: I guruhda 1-bosqich 5 nafar – 8,8%, 2-bosqich 10 nafar – 17,5%, 3A-bosqich – 17 nafar – 29,8% bemorda, 3B-bosqich 19 nafar – 33,3% bemorda, 4 bosqich 5 nafar – 8,8% bemorda 5 bosqich esa 1 nafar – 1,8% bemorda aniqlandi (5-diagramma). II va nazorat guruhlarida SBK aniqlanmadi.

I guruh bemorlarida SBK bosqichlari



5-diagramma. RAda buyrak zararlanishi aniqlangan bemorlarda surunkali buyrak kasalligi bosqichlari bo'yicha taqsimlanishi(n).

Xulosa

Revmatoid artritli bemorlarda buyrak zararlanishi kasallik faolligining yuqori bo'lishiga, davomiyligi 10 yildan ortiq bo'lishiga, bemorlarning yoshi 50 yoshdan yuqori bo'lishiga, rentgenologik bosqichining yuqoriligiga bog'liqligi aniqlandi. Koptokchalar filtratsiya tezligi orqali revmatoid artritli bemorlarda surunkali buyrak kasalligi bosqichlari aniqlandi va surunkali buyrak kasalligi tashxisi qo'yilgan bemorlar nazoratga olindi.

Adabiyotlar

1. Agzamova G.S., Po'latova Sh.B., Joraboyeva G.B. Markers of kidney fibrosis evaluation in rheumatoid arthritis disease. Tibbiyotda yangi kun. -2023.- № 5(55). - 573-578b.
2. Boers M., Croonen A.M., Dijkmans B.A. Renal findings in rheumatoid arthritis: clinical aspects in 132 necropsies // Ann. Rheum. Dis. - 1987. - Vol. 46. - P. 658-666.
3. Jo'raboyeva G.B. Changes in the functional status of the kidneys in patients with rheumatoid arthritis. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical. -2021.-№.08.- P. 21-25.
4. Pulatova Sh., Nabiyeva D., Abduazizova N., Mukhammad-iyeva S., Agzamova G., Isayeva B. Clinical and pathogenetic values of disorders of mineral metabolism in ankylosing spondylitis // Philosophical Readings XIII.4. - 2022. - P. 20-28.
5. Tokoroyama T., Ando M., Setoguchi K., TSuchiya K., Nitta K. Prevalence, incidence and prognosis of chronic kidney disease classified according to current guidelines: a large retrospective cohort study of rheumatoid arthritis patients. Nephrol Dial Transplant. -2016. 0:1-8. doi: 10.1093/ndt/gfw315].
6. Аллард Дж.К., Артце Ме., Портер Г., Гандур-Мнаймне Л., де Веласко Р., Перес ГО. Фатальная деструктивная шейная спондилоартропатия у двух пациентов, находящихся на длительном диализе. Заболевание почек Ам Ж. -1992.-№.19(1): -С 81-85.
7. Моисеев С.В., Новиков П.И., В.В. Рамеев В.В. Болезнь Стилла у детей и взрослых: новые представления о патогенезе и современные методы лечения. Клин фармакол тер. -2017.-№.26(4). -С.15-20.
8. Оранский С.П., Елисеева Л.Н., Куринная В.П., Давы-

дова А.Ф. Поражение почек при ревматоидном артрите: связь с факторами сердечно-сосудистого риска. Нефрология. -2017.-№21(5): -С.42-47.

9. Пулатова Ш.Б., Набиева Д.А. Анкилозловчи спондилоартритли беморларда минераллар алмашинувининг бузилишларини ҳаёт сифатига таъсирини баҳолаш // «Неврология» - 2022. - №3 (91). - С.16-18.

10. Пулатова Ш.Б., Набиева Д.А. Анкилозловчи спондилоартритли беморларда минераллар алмашинувининг бузилишини клиник-патогенетик аҳамиятини баҳолаш. Биомедицина ва амалиёт журналы. 7 жилд.-2022.-№. 5.- 104-116 б.

11. Фицпатрик Д.К., Джебсон П. Дж., Мэди С.М., Стейерс С. Проявления амилоидоза, связанного с диализом, со стороны опорно-двигательного аппарата верхних конечностей. Айова Орто Дж. -1996.-№.16. -С.135-138.

12. Чеботарева Н.В., Гуляев С.В., Андросова Т.В., и др. Clinicopathological variants and risk factors for chronic kidney disease in rheumatoid arthritis. Therapeutic Archive. -2020.- №. 92 (5). -С. 55-60.

REVMATOID ARTRITDA BUYRAK ZARLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Agzamova G.S., Jo'raboyeva G.B.

Maqsad: revmatoid artritli bemorlarda buyrak zararlanishining o'ziga xos xususiyatlari o'rganish. **Material va usullar:** revmatoid artritli bemorlar da kasallikning klinik bosqichi, davomiyligi, kasallik faolligi yuqori bo'lishi, rentgenologik bosqichi hamda yoshi ortib borishi bilan buyrak zararlanishi ko'proq aniqlandi. **Natijalar:** bemorlar guruhlarida fibroz markyorlari bo'lgan TGF-β1 bilan sistatin-C o'rtasida bog'liqlik o'rganilib, ikkala markyorning qondagi miqdori ortib borishi bilan buyrakning funksional holatini baholash mezonini bo'lgan koptokchalar filtratsiya tezligi kamayishi tasdiqlandi. **Xulosa:** koptokchalar filtratsiya tezligi va siydik tahliliga ko'ra bemorlarda surunkali buyrak kasalligi bosqichlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: revmatoid artrit, buyrak shikastlanishi, TGF-β1, Sistatin-C, surunkali buyrak kasalligi.



IMPORTANCE OF PULSE-THERAPY IN PERIPHERAL VASCULAR DAMAGE IN SYSTEMIC SCLERODERMA

Bekenova G.T., Axmedova N.A., Ganiyeva N.A., Asqarov N.L., Tolipov U.U., Alimova N.Z., Hasanova Sh.A.

ЗНАЧЕНИЕ ПУЛЬС-ТЕРАПИИ ПРИ ПОРАЖЕНИИ ПЕРИФЕРИЧЕСКИХ СОСУДОВ ПРИ СИСТЕМНОЙ СКЛЕРОДЕРМИИ

Бекенова Г.Т., Ахмедова Н.А., Ганиева Н.А., Аскарров Н.Л., Толипов У.У., Алимова Н.З., Хасанова Ш.А.

TIZIMLI SKLERODERMIYADA PERIFERIK TOMIRLAR ZARARLANISHIDA PULS-TERAPIYANING AHAMIYATI

Bekenova G.T., Axmedova N.A., Ganiyeva N.A., Asqarov N.L., Tolipov O'U., Alimova N.Z., Xasanova Sh.A.

Tashkent Medical Academy

Цель: оценка эффективности пульс-терапии при поражении периферических сосудов при системной склеродермии. **Материал и методы:** под наблюдением были 57 больных с диагнозом системная склеродермия (по классификации ACR/EULAR) с началом заболевания от 1-го года до 5 лет, получающих пульс-терапию. **Результаты:** у больных системной склеродермией пульс-терапию применяли в сочетании с базисной терапией. Предупредить осложнения, которые могут наблюдаться у больных, можно в результате подбора адекватных доз и своевременного проведения пульс-терапии. **Выводы:** при применении пульс-терапии улучшение общего состояния и ремиссия у больных наступают в более короткие сроки, чем у больных, получавших только базисную терапию.

Ключевые слова: системная склеродермия, поражение периферических сосудов, пульс-терапия, ремиссия.

Maqsad: tizimli sklerodermada periferik qon tomirlar zararlanishida puls terapiyasining samaradorligini baholash. **Material va usullar:** 1 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan kasallik boshlangan, puls terapiyasini olgan tizimli skleroderma (ACR/EULAR tasnifi bo'yicha) tashxisi qo'yilgan 57 nafar bemor kuzatildi. **Natijalar:** tizimli sklerodermasi bo'lgan bemorlarda puls terapiyasi asosiy terapiya bilan birgalikda qo'llanilgan. Bemorlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olish uchun etarli dozalarni tanlash va puls terapiyasini o'z vaqtida olish mumkin. **Xulososa:** puls terapiyasidan foydalanganda, umumiy holatning yaxshilanishi va bemorlarning remissiyasi faqat asosiy terapiya olgan bemorlarga qaraganda qisqa vaqt ichida sodir bo'ladi.

Kalit so'zlar: tizimli skleroderma, periferik tomirlarning shikastlanishi, puls terapiyasi, remissiya.

Systemic scleroderma is a diffuse connective tissue disease characterized by vascular pathology in the form of progressive fibrosis and diffuse microangiopathy, resulting in Raynaud's syndrome, indurated skin changes, damage to the musculoskeletal system and internal organs [7,9]. According to WHO, the incidence rate of scleroderma varies between different geographical regions and ethnic groups [1]. Primary incidence is from 3.7 to 19 cases per 1 million populations. The general incidence rate is 19-75 cases per 100,000 populations [2]. Systemic scleroderma is 3-7 times more common in women than in men. Clinical features of the disease and the consequences of the disease are different. In limited scleroderma, the outcome of the disease is somewhat better. In diffuse scleroderma, the general condition of patients rapidly deteriorates due to damage to internal organs [3]. Damage to the digestive system in systemic scleroderma is observed in almost all patients. The esophagus, stomach, intestines, pancreas and liver are mostly affected. Even in the limited form of the disease, patients complain of disturbances in the digestive system. Peripheral vascular damage is one of the serious problems in systemic scleroderma [4]. Because the pathological processes occurring in the body as a result of vascular damage deepen. Damage to blood vessels in the primary or secondary form in systemic scleroderma leads to derailment of metabolism in the body [8,10]. The results of various non-specific laboratory tests indi-

cate the activity of the scleroderma process. It was observed that patients with vascular lesions have higher scleroderma activity and worse general condition of patients compared to others [6].

Systemic sclerosis (SSC) is an autoimmune disease of unknown etiology that is characterized by abnormal immune activation, neovascularization and vascular remodeling, eventually leading to the tissue fibrosis, affecting the skin and various internal organs [5].

Purpose of the study

Evaluation of the effectiveness of pulse therapy for peripheral vascular lesions in systemic scleroderma.

Material and methods

During the study, 57 patients with a diagnosis of systemic scleroderma (according to the ACR/EULAR classification) with the onset of the disease from 1 to 5 years (other rheumatologically patients were not identified) were treated in the cardio rheumatology and rheumatology departments of the Tashkent Medical Academy in an inpatient setting, and rheumatic diseases were treated in the Specialized Arthrological Diagnostic Clinic who applied to the hospital and were treated in an outpatient setting were included. The selected patients did not have any signs of vascular damage or stenosis in clinical or laboratory tests. In the anamnesis of the disease, he did not take various medicines for a long time due to other diseases. 3 (5.2%) of the children included in the study were male and 54 (94.7%) were female. All (100%) pa-

tients enrolled in the study were recommended UTT. 30 (52.6%) patients were prescribed basic therapy and pulse therapy, 27 (47.3%) were prescribed only basic therapy. Including sclerodactyly (92%), gastrointestinal involvement (GIT; 92%), interstitial lung disease (ILD; 50%), signs of digital ischemia (43%), telangiectasia (43%), osteolysis (27%), soft tissue calcification (20%). The median skin score was 4 [2; eight]. The following TGFs were assessed: increase in BMI >25 kg/m², hypercholesterolemia [total cholesterol (Ch)>5.1 mmol/l], AH [level of systolic arterial pressure (BP) >140 mm Hg. and diastolic blood pressure >90 mm Hg. smoking, diabetes mellitus (DM). All patients received standard vascular therapy, according to indications - glucocorticoids, immunosuppressant statins.

Results

During the study, 57 patients aged 18 to 35 years with a diagnosis of systemic scleroderma (according to the ACR/EULAR classification) (other rheumatological diseases were not identified) were treated in the cardio rheumatology and rheumatology departments of the Tashkent Medical Academy in an inpatient setting and referred to the IADK department of rheumatic diseases. patients who applied and were treated in an outpatient setting were included. The selected patients have not been diagnosed with chronic diseases in clinical or laboratory tests, and have not been taking various drugs due to other diseases for a long time in their anamnesis. 3 (5.2%) of the children included in the study were male and 54 (94.73%) were female. All (100%) of the patients included in the study were prescribed basic therapy and were fully and continuously accepted by the patients. We selected patients receiving pulse therapy in the department and examined them. Patients were re-examined every 3 months and 6 months. Patients were under constant observation.

Primary patients were selected for the study, that is, patients who were 1-5 years old at the onset of the disease and did not take basic drugs before. The results of their initial analysis were compared with the results obtained at the time of inpatient or outpatient consultation during the re-examination.

In addition to vascular damage, other internal diseases were also observed in patients. It was also observed that liver enzymes increased in our patients due to the fact that we conducted pulse therapy together with basic drugs. As a result, clinical symptoms of damage to the digestive tract and liver-biliary tract were clearly observed in patients receiving pulse therapy, such as decreased appetite, general malaise, weight loss, stuttering, nausea, flatulence, jaundice of the skin and mucous membranes, itching of the skin in 2 patients, darkening of the color of urine, discoloration of stool, pain under the epigastric and right rib cage, and a feeling of heaviness in the liver area in one patient due to the strong toxic effect of the drug occurred due to General weakness, dizziness, nausea and similar dyspeptic changes were observed in some patients who did not receive pulse therapy. We took this as a side effect of the basic medications that the patients were taking.

Since we used basic therapy together with pulse therapy and repeated pulse therapy at 3 and 6 months, we

also checked liver function. When determining cytolysis in hepatocytes, before receiving pulse therapy, only 1 patient had a higher than normal level of ALT in the blood, and after treatment, it was found that this indicator was higher in 9 patients and it was equal to 47.3yo19.6 IU/l on average. When we repeated the pulse therapy after 6 months, it was found that the level of ALT in the blood of all patients was normal, and after the treatment, this indicator was high (38.2, 46.5, 68.3 IU/l) and was equal to 24.8yo18.2 IU/l on average. 9 (69.2%) of all 13 patients who received Plaquenil (all women) had an elevated ALT level in blood analysis after treatment. The indicator was equal to 47.3yo19.6 IU/L on average. This showed that taking the Plaquenil drug has a toxic effect on the liver.

Before the pulse therapy, the amount of Gamma-GT in the blood of all patients was normal, and after the treatment, it was found that this indicator was high in 7 patients and was equal to 53.2yo26.8 IU/l on average.

In 3 (16.7%) of the patients who received Cuprenil, the level of ALT in the blood after treatment was higher than normal, on average 28.7yo16.8 IU/L. In men, this indicator is normal. Due to the small number of patients included in the study, it was considered that the assessment of gender differences in the disease by laboratory parameters is not reliable. After 3 months, it was found that before re-pulse therapy, the Gamma-GT level in the blood of all patients was normal, and after the treatment, this indicator was high in 3 patients and was equal to 38.6yo18.2 IU/l on average. After 3 months, re-pulse therapy was canceled in patients, and patients underwent angiography and dopplerography examination. 13 people (we managed to re-examine 2 men and 11 women). As a result, the vascular and internal organs of the patients improved relatively, compared to the Doppler examination, the stenosis was relatively widened. For 3 months, basic treatments were carried out. Gamma-GT content in the blood of all patients before repulse therapy was found to be high in 3 patients, and in 7 patients after the treatment, this indicator was found to be high and equal to 53.2yo26.8 IU/l on average. After 6 months, before re-pulse therapy, the amount of Gamma-GT in the blood of all patients was normal, and after the treatment, it was found that this indicator was high in 3 patients and was equal to 38.6yo18.2 IU/l on average.

After the pulse therapy, the interview was canceled in the patients. And according to the voice of the patients, the patients said that their condition is relatively better and they feel better. We told the patients to continue the basic therapy and to be under constant supervision. After 6 months, patients were canceled again pulse therapy. Before conducting pulse therapy, it was recommended that patients undergo general and biochemical blood tests.

A simple, inexpensive instrumental method - USD was used to evaluate changes in the structure of the vessel walls or the state of the tissue in general in case of vascular injury. It was found that vascular changes can be caused by medication or systemic scleroderma disease itself. It was found that damage to internal organs increases with the duration of the disease. It was found out that the used medicine has a direct effect on internal organs, especially on hepatocytes. Therefore, during the

research, the structure of the liver was studied during instrumental and laboratory tests.

In patients who underwent basic treatment and pulse therapy, the degree of stenosis of vascular damage was studied by UTT examination before and after treatment. The results showed that patients who underwent pulse therapy again in 3 months and 6 months increased the stenosis and improved blood circulation.

During the study, laboratory and instrumental examinations of the patients were carried out. According to the results, the stenosis observed in the patients increased as a result of the use of basic drugs and pulse therapy as a result of the extension of the stenosis (14% in 3 months, 26% in 6 months), the general condition of the patients improved (85%), the appetite, blood pressure and coagulogram analysis decreased to normal, we were able to achieve a relatively decrease in hardening of the skin, a relative decrease in swallowing in the patient, a decrease in frostbite in the arms and legs, and these results were proven during the study

Conclusion

1. As a result of the selection of adequate doses of pulse therapy in combination with the use of basic drugs for patients with systemic scleroderma, clinical, laboratory and instrumental changes characteristic of vascular damage occur in patients, that is, stenosis in the patient expands, and this leads to an improvement in the general condition of patients.

2. In patients with systemic scleroderma, pulse therapy was used in combination with basic therapy. It is possible to prevent complications that can be observed in patients as a result of choosing adequate doses and conducting pulse therapy in time for patients with SSC.

3. It was found that the value of pulse therapy in the systemic scleroderma disease is high, remission of patients is accelerated compared to patients who received only basic therapy, and the general condition is relatively better.

References

1. Aripova N.A., Djuraeva E.R., Nabieva D.A., Ganieva N.A. Clinical and Prognostic Characteristics of "Disease-specific" Auto antibodies in Systemic Scleroderma // J. Compl. Altern. Med. Res. – 2021. – Vol. 13, №4. – P. 26-38.
2. Asano Y. The pathogenesis of systemic sclerosis: an understanding based on a Common Pathologic Cascade across multiple Organs and additional organ specific pathologies // J. Clin. Med. – 2020. – Vol. 9, №9. – P. 2687.

3. Berdiyeva D.U. Assessment of clinical and diagnostic indicators of Granulomatosis with Polyangiitis // Brit. Med. J. – 2021. – Vol. 1, №2. – P. 238-249.

4. Denton C.P., Khanna D. Systemic sclerosis // Lancet. – 2017. – Vol. 390 (10103). – P. 1685-1699.

5. Elhai M., Meune C., Boubaya M. et al. EUSTAR group. Mapping and predicting mortality from systemic sclerosis // Ann. Rheum. Dis. – 2017. – Vol. 76, №11. – P. 1897-18905.6

6. Ferdowsi N., Huq M., Stevens W. et al. Development and validation of the Scleroderma clinical trials Consortium damage index (SCTC-DI): a novel instrument to quantify organ damage in systemic sclerosis // Ann. Rheum. Dis. – 2019. – Vol. 78, №6. – P. 807-816.

7. Huang Y., Liu H., Wu C. et al. Ventricular arrhythmia predicts poor outcome in polymyositis/dermatomyositis with myocardial involvement // Rheumatology (Oxf.). – 2021. – Vol. 60, №8. – P. 3809-3816.

8. Ingegnoli F., Ughi N., Mihai C. Update on the epidemiology, risk factors, and disease outcomes of systemic sclerosis // Best Pract. Res. Clin. Rheumatol. – 2018. – Vol. 32, №2. – P. 223-240.

9. Lambova S. Cardiac manifestations in systemic sclerosis // Wld J. Cardiol. – 2014. – Vol. 6, №9. – P. 993-1005.

10. Van den Hoogen F., Khanna D., Fransen J. et al. 2013 classification criteria for systemic sclerosis: an American College of Rheumatology/European League against Rheumatism collaborative initiative // Arthritis Rheum. – 2013. – Vol. 65, №11. – P. 2737-2747.

IMPORTANCE OF PULSE-THERAPY IN PERIPHERAL VASCULAR DAMAGE IN SYSTEMIC SCLERODERMA

Bekenova G.T., Axmedova N.A., Ganiyeva N.A., Asqarov N.L., Tolipov U.U., Alimova N.Z., Hasanova Sh.A.

Objective: To evaluate the effectiveness of pulse therapy for peripheral vascular lesions in systemic scleroderma. **Material and methods:** 57 patients diagnosed with systemic scleroderma (according to the ACR/EULAR classification) with the onset of the disease from 1 year to 5 years, receiving pulse therapy, were observed. **Results:** In patients with systemic scleroderma, pulse therapy was used in combination with basic therapy. Complications that may occur in patients can be prevented by selecting adequate doses and timely pulse therapy. **Conclusions:** When using pulse therapy, improvement in the general condition and remission in patients occurs in a shorter time than in patients who received only basic therapy.

Key words: systemic scleroderma, peripheral vascular damage, pulse therapy, remission.



ПОЛИАНГИИТЛИ ГРАНУЛЕМАТОЗНИНГ КЛИНИК КЕЧИШИНИНГ ЎЗИГА ҲОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Бердиева Д.У., Ризамухамедова М.З., Нурмухамедова Н.С.

ХАРАКТЕРИСТИКА КЛИНИЧЕСКОГО ТЕЧЕНИЯ ГРАНУЛЕМАТОЗА С ПОЛИАНГИИТОМ

Бердиева Д.Ю., Ризамухамедова М.З., Нурмухамедова Н.С.

CHARACTERISTICS OF THE CLINICAL COURSE OF POLYANGIITIS GRANULEMATOSIS

Berdieva D.U., Rizamukhamedova M.Z., Nurmukhamedova N.S.

Тошкент тиббиёт академияси

Цель: анализ особенностей клинического течения гранулематозного полиангиита и оценка роли факторов риска в развитии заболевания. **Материал и методы:** под наблюдением были 60 пациентов с гранулематозом с полиангиитом, находившихся на лечении в отделениях ревматологии и кардиоревматологии многопрофильной клиники Ташкентской медицинской академии, а также в амбулаторном отделении Ташкентской медицинской академии в 2018-2022 гг. **Результаты:** местный тип гранулематоза с полиангиитом характеризуется легким течением, то есть клинико-активные показатели низкие. Индекс активности васкулита (BVAS) и индекс поражения органов (VDI) при диффузном типе были выше, чем при локальном. Наиболее частыми местными проявлениями гранулематоза с полиангиитом являются поражения верхних дыхательных путей (96%), зрения (41%) и слуха (38%), из висцеральных проявлений – поражение легких (53%) и почек (31%). **Выводы:** задержка в диагностике и лечении заболевания приводит к экономическим потерям из-за высокого риска инвалидизации и даже смерти.

Ключевые слова: гранулематоз с полиангиитом, клиника, характеристика.

Objective: To analyze the features of the clinical course of granulomatous polyangiitis and assess the role of risk factors in the development of the disease. **Material and methods:** 60 patients with granulomatosis with polyangiitis who were treated in the departments of rheumatology and cardiorheumatology of the multidisciplinary clinic of the Tashkent Medical Academy, as well as in the outpatient department of the Tashkent Medical Academy in 2018-2022, were observed. **Results:** The local type of granulomatosis with polyangiitis is characterized by a mild course, that is, clinically active indicators are low. The vasculitis activity index (BVAS) and organ damage index (VDI) were higher in the diffuse type than in the local type. The most common local manifestations of granulomatosis with polyangiitis are lesions of the upper respiratory tract (96%), vision (41%) and hearing (38%), while visceral manifestations include lesions of the lungs (53%) and kidneys (31%). **Conclusions:** Delay in diagnosis and treatment of the disease leads to economic losses due to the high risk of disability and even death.

Key words: granulomatosis with polyangiitis, clinic, characteristics.

Полиангиитли гранулематоз (ПАГ) — бу антинейтрофил цитоплазматик антитаналар (АНЦА) ишлаб чиқиши билан боғлиқ бўлган тизимли васкулит бўлиб, юқори нафас йўллари, ўпка ва буйракларни зарарловчи майда томирларнинг гранулематоз яллиғланиши ва некрозловчи васкулитнинг ривожланиши билан тавсифланади [1,3]. ПАГда турли аъзолар ва тизимларнинг зарарланиши кузатилиши мумкин [5]. Ушбу патологиянинг тарқалиши 100 минг аҳолига 0,5-0,85 ҳолатни ташкил этади [2,4]. А. Mohammad ва бошқаларга кўра, ГПА билан касалланиш йилига 1 миллион аҳолига 9,8 (7,4-12,2) ни ташкил этди [6-8].

Тадқиқот мақсади

Полиангиитли гранулематознинг клиник кечишининг ўзига ҳос хусусиятларини таҳлил қилиш ва касалликнинг ривожланишида хавф омилларининг ролини баҳолашдан иборат.

Материал ва усуллар

Тадқиқотнинг объекти сифатида 2018-2022 йилларда Тошкент тиббиёт академияси кўп тармоқли клиникасининг ревматология, кардиоревматология бўлимларида стационар шароитда даволанган ва артрологик ИАДК бўлимида амбулатор шароитда кузатилиб даволанган 60 нафар ПАГ билан оғриган беморлар олинган.

Тадқиқотнинг предмети сифатида беморларнинг қон зардоби, рентгенологик ва ультратовуш текшириш усуллари, ҳамда касаллик фаоллиги (BVAS) даражасини аниқлаш ва васкулитнинг шикастланиш индексини (VDI) аниқлаш материаллари олинган.

Тадқиқотда клиник сўровнома, лаборатор таҳлиллар, иммунологик (АНЦА), бурун-ҳалқумдан бактериологик экма олиш, BVAS ва VDI кўрсаткичлари, инструментал (бурун ёндош бўшлиқлари ва ўпка МСКТ, рентгенологик текшириш) ва статистик усуллардан фойдаланилган.

Беморларни умумий текшириш клиникада қабул қилинган режа асосида амалга оширилди. Анамнезни ўрганишда касалликнинг фаоллиги, турли аъзо ва системаларнинг зарарланиши мавжудлигига алоҳида эътибор берилди.

Анамнезни батафсил ўрганишда преморбид фон ПАГ бошланишидан 6 ойдан кўпроқ вақт олдин ва ПАГ белгилари пайдо бўлишидан олдинги ва унинг ривожланишига сабаб бўлиши мумкин бўлган ҳолатлар таҳлил қилинди. Касалликнинг биринчи ойининг манифест белгилари, авж олган фазанинг клиник кўринишлари ва кейинги рецидивлар солиштирилди.

Фаолликни баҳолаш учун BVAS шкаласи (васкулитнинг Бермингем фаоллик индекси) ишлатил-

ди. Касалликнинг ремиссияси BVAS шкаласи бўйича 1 ёки ундан кам баллга, BVAS шкаласи бўйича ПАГнинг кўзиши - 2 ва ундан кўп баллга эга деб ҳисобланди. VDI индексидан фойдаланган ҳолда барча беморларда аъзолар шикастланишининг баҳоланиши ўтказилди. Зарарланиш индексини баҳолашда васкулит бошланганидан бери кузатилган аъзоларнинг шикастланиши ҳисобга олинади. Беморларда кўпинча васкулит ривожланишидан олдин юзага келган қўшимча касалликлар мавжуд бўлиб, улар ҳисобга олиниши керак эмас.

Касалликнинг кечишини таҳлил қилганда, ПАГнинг маҳаллий (юқори нафас йўллари, кўриш ва эшитиш аъзоларининг зарарланиши) ва тарқалган (юқори нафас йўллари, кўриш ва эшитиш аъзоларининг ўпка ва/ёки буйрақлар, шунингдек ошқозон-ичак тракти, асаб тизими, терининг шикастланиши билан биргаликда зарарланиши) вариантлари ажратилди. Тарқалган ПАГ васкулитларни ўрганиш бўйича Европа жамияти (EUVAS) таснифига мувофиқ касалликнинг эрта тизимли, тарқалган ва оғир вариантларини ўз ичига олади. Хусусан, биз томондан ўрганилган ПАГ ташҳиси қўйилган 18 ёшдан 71 ёшгача бўлган 60 та бемор (29 эркак ва 31 аёл) текширилди. Текширилган беморларнинг ўртача ёши $41,0 \pm 1,9$ ёшни ташкил қилди. ПАГ ташҳиси 2012 йилда Чапел-Хилл (АҚШ) да конференцияда қабул қилинган номенклатурага мувофиқ, шунингдек 1990 йилда Америка ревматологлар коллегиясининг (АСР) 4 мезонидан камида 2 мезонининг мавжудлиги асосида ташкил этилган.

Касалликнинг бошланишидан то ташҳис қўйилгангача ва даволаш бошланишигача бўлган ўртача давр $14,6 \pm 2,1$ ойни ташкил этди. Текширув ўтказилган вақт мобайнида ПАГнинг ўртача давомийлиги йилларда $5,7 \pm 4,8$ (ойларда $69,6 \pm 57,7$) ни ташкил этди.

Натижалар ва муҳокама


ПАГ ривожланишига сабаб бўлиши мумкин бўлган омиллар 60 беморнинг 42 тасида (70%), касалликнинг локал ва тарқоқ шаклларида бир хил ча-

стотада (мос равишда 50% ва 54%) аниқланган. 42 тадан 22 тасида юқори нафас йўллари патологияси (8 тасида ўРВИ, биттасида паратонзилляр абсцесс, иккитасида бурун тўсиғидаги операциялар, олтитасида полипэктомия, биттасида гайморотомия) ёки тиш олиш (тўрттаси) билан боғлиқ. 11 беморда касалликнинг бошланишидан олдин совуқда қолиш, тўрттасида инсоляция, бештасида стресс реакцияси ва 31 аёлдан учтасида (9,6%) аборт ёки туғиш билан содир бўлган.

ПАГ билан оғриган беморларда преморбид фонни ўрганишда, 60 бемордан 26 тасида (43%) ПАГ белгилари сурункали юқори нафас йўллари патологияси фонида ривожланганлиги, шу жумладан 12 беморда ринит (кўпинча вазомотор), бешта беморда полип, сурункали синусит еттитасида, сурункали ёки такрорий ўрта отит - 13-да, бу касалликнинг локал ва тарқоқ шаклларида бир хил даражада кузатилган, ПАГ ривожланишидан олдин патологиянинг ўртача давомийлиги 4 йил (мин-макс: 6 ой - 10 йил). Тўрт нафар (6%) беморда ўпка ва бронхиал касалликлар тарихи мавжуд бўлиб, улардан иккитаси сил касаллигига чалинган ва силга қарши дорилар билан самарали даволанган. ПАГ билан касалланган бешта беморда преморбид бўғимларнинг шикастланиши сурункали ёки рецидивланувчи эрозив бўлмаган артрит билан тавсифланган, бошқа ҳолатда бўғимларда ўртача даражада эрозив ўзгаришлар аниқланган ва МТ билан ревматоид артрит ташҳиси билан даволанган.

Ташҳисни тасдиқлаш билан морфологик текширув 48 (80%) беморда ўтказилди. Морфологик текширувда касалликнинг ҳаёт давомидаги ташҳиси ўтказилди (1-расм):

- 35 кишида бурун шиллиқ қавати ва гаймор бўшлиқларининг таркиби;
- 2 беморда орбита тўқималари;
- 5 кишида ўпка тўқималари;
- 2 беморда оғиз бўшлиғининг шиллиқ қавати;
- 2 беморда хиқилдоқнинг шиллиқ қавати;



1-расм. Морфологик текширув натижалари

23 та биопсия намуналарида морфологик текшириш пайтида одатда некротизловчи васкулит, 25 тасида гигант кўп ядроли хужайраларни ўз ичига олган полиморф-хужайрали инфильтрация аниқланган, бу ПАГ ташҳиси фойдасига гувоҳлик беради. ПАГ нинг

26 (43%) ҳолатида васкулит ва грануломатоз яллиғланиш белгиларининг комбинацияси қайд этилган.


ПАГ билан оғриган беморларнинг учта ўпка биопсиясида некротизловчи васкулитнинг кўрини-

ши, иккитасида - гигант кўп ядроли хужайрали инфилтрат бор эди.

Шундай қилиб, ўпка биопсияси ва буйрак понксийен биопсияси каби мураккаб инвазив текширувлар энг информацион эди. Юқори нафас йўл-

ларининг шиллиқ қаватининг биопсиясининг маълумотлар таркиби сезиларли даражада паст эди.

Барча беморларда васкулит ва гранулематоз яллиғланишнинг клиник эквивалентларининг мавжудлиги аниқланди.



2-расм. Беморларда васкулит ва гранулематоз яллиғланишнинг учраш частотаси (%).

Васкулит белгилари беморларнинг 56,7 %, гранулематоз яллиғланиш белгилари – беморларнинг 80 % аниқланди. (2-расм)

Васкулитнинг буйраклардан ташқари кўринишлари (тери васкулити, эписклерит, моноеврит) бўлган ПАГ билан касалланган 12 (20,0%) беморлардан 7 (11,6%) беморларда ПАГ доирасида буйраклар шикастланиши билан бўлган васкулитнинг буйраклардан ташқари кўринишлари билан бирга кечиши аниқланган. 5 (8,3%) ПАГ билан оғриган беморларда буйраклар шикастланиши ҳақида маълумотлар йўқ эди: 2 (3,3%) беморларда ПАГнинг маҳаллий шакли, 3 (5,0%) беморларда ўпка шикастланиши билан ПАГ нинг умумий шакли бўлган эди.


Касаллик турига кўра беморлар 2 та гуруҳга бўлинди:

I гуруҳ - локал тури (яъни юқори нафас олиш йўллари, кўрув ва эшитув аъзоларининг зарарланиши) 29 (48%) та беморда аниқланган. Маҳаллий шакл 18 ёшдан 71 ёшгача бўлган 11 та эркак ва 18 та аёлларда аниқланди (ёш бўйича медиана 40,8 ёш) (3-расм).

II гуруҳ - тарқоқ тури (юқори нафас йўллариининг шикастланиши, кўрув ва эшитув аъзоларининг, ўпка ва / ёки буйракларнинг шикастланиши) 31 (52%) та беморда аниқланди. 18 ёшдан 70 ёшгача бўлган 19 та эркак ва 12 та аёлда (ёш бўйича медиана 41 ёш) ўпка ва / ёки буйракларнинг шикастланиши билан биргаликда юқори нафас йўллариининг шикастланиши, кўрув, эшитув аъзоларининг шикастланиши аниқланди. Тарқоқ ПАГ билан касалланган 31 бемордан 28 (90,3%) тасида касалликнинг бошланишида касалликнинг маҳаллий шакли аниқланди. Ушбу беморларда тарқоқ шаклнинг ўртача ривожланиш вақти $11,7 \pm 2,1$ ойни ташкил этди.

ПАГ нинг эрта босқичларида касалликнинг ўзи га ҳос хусусиятлари беморларда “ниқоб” кўринишида кечганлиги кузатилди. Ташхис тасдиқлангунча беморларга қуйидаги ташхислар қўйилган (4-расм).

ПАГ нинг дебют белгилари юқори нафас йўллариининг шикастланиши (бурун битиши, бурундан қонли ёки йирингли ажралмалар ажралиши, бурундаги қобиқлар, ларингоспазм, ва бошқалар), умумий симптомлар (иситма, қувватсизлик), кўриш аъзолари (гранулема, эписклерит, увеит), бўғимлар зарарланиши (артрит), эшитиш аъзолари (отит), ўпкада инфильтратлар аниқланган.




3-расм. Беморларнинг гуруҳларда жинси бўйича тақсимланиши

ПАГ билан бўлган текширилган 60 беморда кўпинча бурун ва бурун ёндош бўшлиқларининг шикастланиши аниқланди. Текширилган беморларнинг ярмидан кўпида ўпка шикастланиши (53,3%), ПАГ билан бўлган беморларнинг 38,3% ида васкулит доирасида буйракларнинг зарарланиши кузатилди. ПАГ билан бўлган беморларда аъзолар шикастланишининг ривожланиш частотаси 5-расмда келтирилган.


Бурун ва бурун ёндош бўшлиқларининг зарарланишини касаллик турига қараб гуруҳларда батафсил таҳлилини келтирадиган бўлсак: I гуруҳда бурун ва бурун ёндош бўшлиқларининг шиллиқ қаватининг гипертрофияси 92%, 2 чи гуруҳда эса 64% ҳолатларда аниқланган; ярали некротик ринит - 1 чи ва 2 чи гуруҳларда 76% ва 29% мос равишда ку-

затилди; деструктив синусит 1 чи гуруҳда 45% ҳолатларда аниқланган бўлса, бир вақтнинг ўзига 2 чи гуруҳда бу кўрсаткич 1% ташкил этди; бурун тўсиғининг перфорацияси (бунинг оқибатидаги бурун

эгарсимон деформацияси) локал турида, яъни 1 чи гуруҳда, 26% ҳолатларда бўлса, 2чи гуруҳда эса бу кўрсаткич 3% да қайд этилди (6-расм).



4-расм. ПАГ нинг эрта босқичларида касаллик кечишининг ўзига ҳос “ниқоблари”




5-расм. ПАГ билан бўлган беморларда аъзолар шикастланишининг ривожланиш частотаси (%).

Беморларда кўриш аъзолари зарарланишни гуруҳлар ўртасида тақсимланишини таҳлил қилганимизда 1чи гуруҳда эписклерит 44%, увеит - 36%, периорбитал гранулема - 16% беморларда қайд этилди, 4% беморда кўрлик аниқланди. 2 чи гуруҳда эса бу кўрсаткичлар 12%, 9%, 1% ни ташкил этди, кўрлик эса 1% беморларда кузатилди (7-расм).

Текширилган беморларда эшитиш аъзоларининг зарарланиши бир ёки икки томонлама эшитиш қобилятининг пасайиши билан намоён бўлди ва гуруҳларда мос равишда 52% ва 40% ташкил этди. Сурункали отит 1 чи гуруҳда 43,5%, 2чи гуруҳда эса

58% беморларда аниқланди. Мастоидит касаллигининг локал турида 4,3%, тарқоқ турида 2% ҳолатларда кузатилди (8-расм).


Маълум бўлишича ўпка ва буйрак зарарланиши касаллигининг тарқоқ турида кузатилади. Ўпка зарарланиши 56% беморларда инфилтратлар, 31,3% тугунлар, 19% ҳолатларда ўпкада бўшлиқлар билан намоён бўлди. 6,3% беморда алвеоляр қон кетиш кузатилди. Ўпканинг зарарланиши учта ҳолатда асимптоматик бўлиб, МСКТ томонидан аниқланган (9-расм).



6-расм. Беморларда бурун ва бурун ёндош бўшлиқларининг зарарланиши (%)



7-расм. Беморларда қўриш аъзолари зарарланишини (%)



8-расм. Беморларда эшитиш аъзоларининг зарарланиш кўрсаткичлари (%)




а б в г
9-расм. ПАГ да МСКТ маълумотларига кўра ўпка ва хиқилдоқ стенозига мисоллар (хусусий кузатувлар):
а,б – ўпкада тугун; в – ўпкада бўшлиқ; г – хиқилдоқ бойламлари ости гранулёмаси.

Буйраклар шикастланиши 47% - гематурия, 37% - протеинурия ва 16% беморларда коптокчалар фильтрация тезлигининг 50% дан кўпроққа камайиши билан намоён бўлди (10-расм).

Хулоса

Полиангиитли гранулематознинг локал тури энгилроқ кечиши билан тавсифланади, яъни клиник ва фаоллик кўрсаткичлари паст бўлади. Тарқоқ турида васкулит фаоллик индекси (BVAS) ва аъзоларнинг шикастланиш индекси (VDI) локал турига нисбатан юқорилиги қайд этилди. ПАГ да энг

кўп учрайдиган маҳаллий кўринишлари юқори нафас йўллари (96%), кўриш аъзосининг (41%) ва эшитиш аъзосининг (38%) зарарланиши, висцерал кўринишлари ўпка (53%) ва буйраклар (31%) нинг шикастланишларидир. Бўғимлар (13%), тери (8%) ва юрак-қон томир тизими (3%) зарарланиши нисбатан кам учрайди. ПАГ билан касалланган беморларнинг 80 % да, аксарият тарқоқ турида (76%) бурун бўшлиғида *Staphylococcus aureus* қайд этилди, бу эса касалликнинг тез-тез қайталанишига ва оғир кечишига сабаб бўлди.



10-расм. Беморларда ўпка ва буйракнинг зарарланиш кўрсаткичлари (%)

Адабиётлар

1. Ганиева Н.А., Арипова Н.А., Джураева Э.Р. Комбинированная терапия синдрома Рейно при системной склеродермии // Терапевтический Вестник Узбекистана. – 2022. – №3. – С.100-101.
2. Bekenova G.T Study of damage to the cardiovascular system in patients with systemic scleroderma // Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Vol.13. – P. 19-25.
3. Berdiyeva D.U. Assessment of clinical and diagnostic indicators of Granulomatosis with Polyangiitis // British Medical Journal. – 2021. – №2. – Vol.1. – P. 238-249.
4. De Lind van Wijngaarden R. A. Clinical and histologic determinants of renal outcome in ANCA-associated vasculitis: A prospective analysis of 100 patients with severe renal involvement / R. A. De Lind van Wijngaarden [et al.] // Journal of the

American Society of Nephrology. — 2006 — Vol. 17. — № 8. — P. 2264–2274.

5. Diagnostic and Classification Criteria in Vasculitis. Available at: [https:// research.ndorms.ox.ac.uk/public/dcvas/dcvas-sites](https://research.ndorms.ox.ac.uk/public/dcvas/dcvas-sites). Accessed: 20.02.2022.

6. De Groot Keta L., De Groot K., Reinhold-Keller E., Tatsis E., Paulsen J., Heller M., Nolle B., Gross W.L. Therapy for the maintenance of remission in sixty-five patients with generalized Wegener's granulomatosis: methotrexate versus trimethoprim/sulfamethoxazole. // Arthritis Rheum 1996. – №39. – P.2052-2061.

7. De Groot K. Randomized trial of cyclophosphamide versus methotrexate for induction of remission in early systemic antineutrophil cytoplasmic antibody-associated vasculitis // Arthritis and rheumatism. — 2005. — Vol. 52. — № 8. — P.

2461–2469.

8. De Rosa F. Anti-neutrophil cytoplasmic antibodies in echinococcus granulosus hydatid disease // Human immunology. — 2001. — Vol. 62. — № 10. — P. 1122–1126.

9. Mukhammadieva S.M., Nabieva D.A., Abduazizova N.X., Xidoyatova M.R. Clinical efficacy and tolerability of infliximab in patients with severe ankylosing spondylitis // Original Medicine, 2022. – №.1.- Vol .1.- – P. 8-16.

ПОЛИАНГИИТЛИ ГРАНУЛЕМАТОЗНИНГ КЛИНИК КЕЧИШИНING ЎЗИГА ҲОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Бердиева Д.У., Ризамухамедова М.З.,
Нурмухамедова Н.С.

Мақсад: полиангиитли гранулематознинг кечиши ва асоратларини эрта аниқлаш, шу билан бирга, касалликнинг клиник, биокимёвий ва иммунологик кўринишлари ўртасида муҳим боғланишлар мавжудлигини баҳолаш, самарали даволаш усуллари таҳлил қилиш ва муқобиллаштириш алоҳида аҳамият касб этади. **Материал ва усуллар:** амбулатор шароитда кузатилиб даволанган 60 нафар ПАГ билан оғриган

беморлар олинган. Беморларнинг қон зардоби, рентгенологик ва ультратовуш текшириш усуллари, ҳамда касаллик фаоллиги (BVAS) даражасини аниқлаш ва васкулитнинг шикастланиш индексини (VDI) аниқлаш материаллари олинган. **Натижалар:** тизимли касалликлар орасида полиангиитли гранулематоз жиддий касалликлардан бири бўлиб, таххис қўйиш ва даво чораларининг кечиктирилиши беморларнинг ҳаёт сифатини пасайишига, ҳамда ногиронлик ва хатто ўлимга сабаб бўлиши ҳавфи юқорилиги туфайли иқтисодий зарар билан белгиланадиган тиббиётдаги ечими топилиши зарур бўлган жиддий муаммо ҳисобланади. Шу сабабли қуйидаги мақолада касалликнинг клиник кечишидаги хусусиятлар батафсил кўриб чиқилади. **Хулоса:** полиангиитли гранулематознинг локал тури энгилроқ кечиши билан тавсифланади, яъни клиник ва фаоллик кўрсаткичлари паст бўлади. Тарқоқ турида васкулит фаоллик индекси (BVAS) ва аъзоларнинг шикастланиш индекси (VDI) локал турига нисбатан юқорилиги қайд этилди.

Калит сўзлар: полиангиитли гранулематоз, клиника, хусусиятлари.



КЛИНИЧЕСКИЕ И ЛАБОРАТОРНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ПРИ ОСТРОМ МИЕЛОИДНОМ ЛЕЙКОЗЕ

Бобоев К.Т., Мусашайхова Ш.М., Джумабаева С.Э.

O'TKIR MIYELOID LEYKEMIYADA KLINIK VA LABORATORIYA KO'RSATKICHLARI

Boboev K.T., Musashaykhova Sh.M., Djumabayeva S.E.

CHARACTERISTICS OF CLINICAL AND LABORATORY PARAMETERS OF ACUTE MYELOID LEUKEMIA

Boboev K.T., Musashaykhova Sh.M., Djumabayeva S.E.

Андижанский государственный медицинский институт, Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр гематологии

Maqsad: jinsi va yoshiga qarab O'ML bilan og'rigan bemorlarda periferik to'qimalar va suyak iligining asosiy gematologik ko'rsatkichlarini o'rganish. **Material va usullar:** O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida davolanayotgan 145 nafar bemorda periferik to'qimalar va suyak iligi ko'rsatkichlari o'rganildi. O'tkir miyeloid leykemiya tashxisi suyak iligi ponksiyonida (ba'zi hollarda periferik qonda) 20% dan ortiq blast hujayralarini aniqlash asosida o'rnatildi. **Natijalar:** periferik qondagi portlash hujayralarining o'rtacha ko'rsatkichlari 60 yoshdan oshgan bemorlarda ($64,2 \pm 4,9$), shuningdek, 60 yoshgacha bo'lgan bemorlarda ($51,7 \pm 2,8$) yuqori bo'lgan. Qonning boshqa ko'rsatkichlari solishtirish mumkin edi va sezilarli darajada farq qilmadi. **Xulosa:** agar suyak iligi va periferik qonda blast hujayralarining 20% dan ko'prog'i aniqlansa, O'ML tashxisini katta ishonch bilan tasdiqlangan deb hisoblash mumkin.

Kalit so'zlar: trombotsitlar, eritrotsitlar blast hujayralari, o'tkir miyeloid leykemiya, giperleykotsitoz, anemiya.

Objective: To study the main hematological parameters of the peripheral tissue and bone marrow in patients with AML depending on gender and age. **Material and methods:** Indicators of peripheral tissue and bone marrow were studied in 145 patients who were treated at the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center for Hematology of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan. The diagnosis of acute myeloid leukemia was established based on the detection of more than 20% blast cells in bone marrow puncture (in some cases in peripheral blood). **Results:** The average values of blast cells in peripheral blood were higher in patients over 60 years of age (64.2 ± 4.9), as well as in the group of patients under 60 years of age (51.7 ± 2.8). Other blood parameters were comparable and did not differ significantly. **Conclusions:** If more than 20% of blast cells are detected in the bone marrow and peripheral blood, the diagnosis of AML can be considered confirmed with great confidence.

Key words: platelet, erythrocyte blast cells, acute myeloid leukemia, hyperleukocytosis, anemia.

Острый миелоидный лейкоз (ОМЛ) – злокачественное заболевание кроветворной системы, для которого характерно наличие в костном мозге и других органах бесконтрольной пролиферации злокачественных клеточных элементов, значительное или полное подавление процесса нормального кроветворения и развитие клинических и лабораторных проявлений недостаточности костного мозга [2,4]. Уже на ранней стадии развития происходит прекращение дальнейшей дифференцировки начальных предшественников кроветворения. Основным критерием различия между ОМЛ и другими злокачественными заболеваниями системы кроветворения считается выявление в костном мозге более 20% бластных клеток [1,10].

ОМЛ считают одним из наиболее широко распространенных злокачественных миелоидных заболеваний у лиц старшей возрастной группы. Считается, что средняя заболеваемость ОМЛ составляет 3-5 человек на 100 тыс. населения в год. При этом уровень заболеваемости резко возрастает в возрасте старше 60 лет, в возрасте старше 80 лет заболевание встречается уже у 12-13 человек на 100 тыс. населения [3,9]. Средний возраст заболевания – 65 лет. Несмотря на значительные достижения в лечении ОМЛ за последние 30 лет, от этого заболе-

вания умирают 2/3 молодых людей [5,8]. К сожалению, объективных эпидемиологических данных о данной патологии в Узбекистане не имеется.

Эти показатели указывают на недостаточную диагностику ОМЛ у пожилых пациентов и низкую продолжительность жизни населения в целом. И хотя ОМЛ относят к редким заболеваниям, лечение его требует организации соответствующей специализированной помощи, взаимодействия многих медицинских специальностей, комплексного проведения клинических, лабораторных, инструментальных и научных исследований, последовательности стационарного и амбулаторного лечения [6,7].

Цель исследования

Изучение основных гематологических показателей периферической крои и костного мозга у больных ОМЛ в зависимости от пола и возраста.

Материал и методы

Показатели периферической крои и костного мозга изучены у 145 больных, находившихся на лечении в Республиканском специализированном научно-практическом медицинском центре гематологии МЗ РУз. Диагноз острого миелоидного лейкоза устанавливался на основании обнаружения в пунктате костного мозга (в ряде случаев в периферической крови) более 20% бластных клеток. Острый

миелоидный лейкоз диагностировали также при обнаружении в костном мозге менее 20% бластных клеток, а в периферической крови – более 20%.

Относительное количество форменных элементов периферической крови подсчитывали в мазке, окрашенном по Романовскому – Гимза, под микроскопом. При подсчёте различных типов белых кровяных клеток использовались методы Шиллинга или Филипченко. По Шиллингу определяли количество лейкоцитов на четырёх участках мазка (четырёхпольный метод). Всего в мазке подсчитывали 100-200 клеток. При методе Филипченко мазок условно делили на 3 части: начальную, среднюю и конечную (трёхпольный метод). Подсчёт вели по прямой линии поперёк мазка от одного его края к другому. В каждой части подсчитывали одинаковое количество клеток. Всего учитывали 100-200 лейкоцитов. Обнаруженные клетки записывали, применяя специальный 11-клавишный счётчик.

Статистическую обработку результатов выполняли с помощью стандартного пакета прикладных программ OpenEpi V. 9.2.

Результаты и обсуждение

У пациентов с острым миелоидным лейкозом среднее значение гемоглобина в крови было равно $71,2 \pm 1,9$ г/л, эритроцитов $2,3 \pm 0,06$ млн, а лейкоцитов – $73,6 \pm 8,4$ тыс. Размах лейкоцитов был довольно широким и колебался от $1,32$ до 446×10^9 /л. У 60 (41,4%) пациентов был обнаружен гиперлейкоцитоз, средний уровень которого равнялся $148,3 \pm 14,5$ тыс. По данным литературы, увеличение содержания лейкоцитов указывает на неблагоприятный прогноз ОМЛ, уменьшение выживаемости и увеличение частоты рецидивов. Поэтому количество белых кровяных клеток определяли у всех больных ОМЛ, а в последующем в зависимости от возраста и пола.

Среднее количество лимфоцитов у больных ОМЛ было равно $25,3 \pm 1,8\%$, минимальное 0,76%, максимальное 61,2%. Средний уровень моноцитов равнялся $15 \pm 1,5\%$. Количество тромбоцитов колебалось от 3 до 606 тыс., а среднее их содержание составило $46,1 \pm 6,9$ тыс.

Средние значения СОЭ были равны $49,5 \pm 1,7$ мм/ч, минимальное значение было равно 4 мм/ч, максимальное 80 мм/ч.

Важным показателем, влияющим на прогноз и стратификацию лечения, является количество опухолевых клеток в периферической крови и костном мозге: чем больше количество бластных клеток, тем хуже прогноз.

Опухолевые клетки в периферической крови были выявлены у 109 больных, среднее количество их было равно $54,1 \pm 2,5\%$. Среднее количество бластных клеток в костном мозге составило $62,1 \pm 2,3\%$.

Уровень гемоглобина и количество эритроцитов у больных пожилого и молодого возраста были примерно одинаковыми (соответственно $71 \pm 4,3$ и $2,23 \pm 0,1$, $71,3 \pm 2,1$ и $2,3 \pm 0,7$), о чём свидетельствовали результаты статистического анализа, при котором значимость была равна 0,95, что соответствовало $p > 0,05$.

Вместе с тем количество лейкоцитов у больных старше 60 лет было выше ($95,6 \pm 24,4$), чем у пациентов молодого возраста – $68,4 \pm 8,7$. Несмотря на это различия в количестве лейкоцитов между группами пожилого и молодого возраста были незначительными ($p > 0,05$).

У 14 (50%) из 28 больных пожилого возраста наблюдался гиперлейкоцитоз – $173,6 \pm 39,1$. Среди больных молодого возраста гиперлейкоцитоз отмечался у 46 (39,3%). У этих пациентов среднее количество белых кровяных клеток составило $140,6 \pm 14,6$, что в 1,2 раза меньше, чем у больных старше 60 лет, однако без значимого различия ($p > 0,05$).

Статистические данные показали, что независимо от возраста в параметрах общего анализа крови, таких как СОЭ, лимфоциты и моноциты, существенных различий у обследованных больных не выявлено ($p > 0,05$). Количество бластных клеток в периферической крови было обнаружено у 20 (71,4%) больных пожилого и у 89 (76,1%) – молодого возраста.

Результаты оценки бластных клеток в периферической крови показали достоверное различие между пациентами пожилого и молодого возраста ($p < 0,05$). Средние значения бластных клеток в периферической крови у пациентов старше 60 лет составляли $64,2 \pm 4,9$, моложе 60 лет – $51,7 \pm 2,8$.

У больных пожилого возраста количество бластных клеток в периферической крови было в 1,2 раза ($p < 0,05$) больше, чем у молодых (таблица).

Таблица

Гематологические параметры у обследованных больных в зависимости от пола

Показатель	Мужчины, n=71	Женщины, n=74
Общий анализ крови:		
- гемоглобин, г/л	$71,4 \pm 2,4^*$	$71,1 \pm 2,8$
- эритроциты	$2,3 \pm 0,09^*$	$2,3 \pm 0,09$
- тромбоциты	$38,0 \pm 7,3^*$	$53,9 \pm 11,5$
- лейкоциты	$72,0 \pm 10,4^*$	$75,1 \pm 13,2$
- лимфоциты	$24,3 \pm 2,4^*$	$26,8 \pm 2,6$
- моноциты	$16,6 \pm 2,4^*$	$13,1 \pm 1,6$
- бласты в периферической крови	$54,1 \pm 3,6^*$	$54,0 \pm 3,5$
- СОЭ	$48,3 \pm 2,5^*$	$50,6 \pm 2,3$
Миелограмма:		
- бласты в костном мозге	$61,3 \pm 3,2^*$	$62,8 \pm 3,3$

Примечание. * – $p > 0,05$.

Таким образом, при первичной диагностике гематологических онкологических заболеваний возникают значительные затруднения из-за неспецифичности различных первичных клинических проявлений. Это связано с тем, что часто они бывают скрыты под проявлениями других, более распространённых патологий. Диапазон изменений количества лейкоцитов в венозной крови при первичном обследовании больных ОМЛ варьировал в широких диапазонах, т.е. от $0,1$ до $100 \times 10^9/\text{л}$. При этом в 38% случаев количество лейкоцитов было в пределах нормы или даже были несколько ниже, а в 44% случаев выявлялся умеренный лейкоцитоз. Только у 18% больных наблюдалась гиперлейкемия, достигающая $50 \times 10^9/\text{л}$ и более. С другой стороны, у 20% пациентов в венозной крови опухолевые клетки не обнаружены, а у остальных пациентов количество бластных клеток варьировало от нескольких процентов до 80-90%.

Таким образом, острый миелоидный лейкоз является клональным опухолевым заболеванием кроветворной ткани, связанной с мутацией в клетке-предшественнице гемопоэза, следствием которой становится блок дифференцировки и бесконтрольная пролиферация незрелых миелоидных клеток.

Выводы

1. У больных пожилого возраста показатель бластных клеток в периферической крови был в 1.2 раза ($p < 0.05$) выше, чем у пациентов молодого возраста, тогда как остальные параметры крови были сопоставимы и между собой достоверно не различались.

2. При обнаружении в костном мозге и периферической крови более 20% бластных клеток диагноз ОМЛ с большой уверенностью можно считать подтверждённым.

Литература

1. Ахмерзаева З.Х., Паровичникова Е.Н., Русинов М.А. и др. Эпидемиологическое исследование острых лейкозов в пяти регионах Российской Федерации // Гематол. и трансфузиол. – 2017. – Т. 62, №1. – С. 46-51.
2. Баранова О.Ю., Антипова Ф.С., Захаров О.Д. и др. Острые миелоидные лейкозы: 10 лет терапии // Клини. онкогематол. – 2015. – Т. 8, №3. – С. 287-301.
3. Зуховицкая Е. В., Фиясь А.Т. Новые подходы в диагностике и терапии острых миелоидных лейкозов // Журн. Гродненского гос. мед. ун-та. – 2016. – №3. – С. 44-51
4. Клинические рекомендации. Острые миелоидные лейкозы. Взрослые. 2020. Доступно по: [https://oncology-](https://oncology-association.ru/wp-content/uploads/2020/09/ostrye-mieloidnye-lejkozy.pdf)

[association.ru/wp-content/uploads/2020/09/ostrye-mieloidnye-lejkozy.pdf](https://oncology-association.ru/wp-content/uploads/2020/09/ostrye-mieloidnye-lejkozy.pdf).

5. Масчан А.А., Масчан М.А., Новичкова Г.А. и др. Острые миелоидные лейкозы: Клини. рекомендации. – М., 2020. – 80 с.

6. Arber D.A. Acute Myeloid Leukemia // Hematopathology; Third Ed. – Foundations in Diagnostic Pathology, 2018. – P. 429-466.

7. Bewersdorf J.P., Zeidan A.M. Hyperleukocytosis and leukostasis in acute myeloid leukemia: can a better understanding of the underlying molecular pathophysiology lead to novel treatments? // Cells. – 2020. – Vol. 9, №10. – P. 2310.

8. Bowman R.L., Busque L., Levine R.L. Clonal hematopoiesis and evolution to hematopoietic malignancies // Cell. Stem. Cell. – 2018. – Vol. 22, №2. – P. 157-170.

9. Buchner T., Krug U.O., Gale R.P. et al. Age, not therapy intensity, determines outcomes of adults with acute myeloid leukemia // Leukemia. – 2016. – Vol. 30, №8. – P.1 781-1784.

10. Steensma D.P., Bejar R., Jaiswal S. et al. Clonal hematopoiesis of indeterminate potential and its distinction from myelodysplastic syndromes // Blood. – 2015. – Vol. 126, №1. – P. 9-16.

КЛИНИЧЕСКИЕ И ЛАБОРАТОРНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ПРИ ОСТРОМ МИЕЛОИДНОМ ЛЕЙКОЗЕ

Бобоев К.Т., Мусашайхова Ш.М., Джумабаева С.Э.

Цель: изучение основных гематологических показателей периферической крови и костного мозга у больных ОМЛ в зависимости от пола и возраста. **Материал и методы:** показатели периферической крови и костного мозга изучены у 145 больных, находившихся на лечении в Республиканском специализированном научно-практическом медицинском центре гематологии МЗ РУз. Диагноз острого миелоидного лейкоза устанавливался на основании обнаружения в пунктате костного мозга (в ряде случаев в периферической крови) более 20% бластных клеток. **Результаты:** средние значения бластных клеток в периферической крови были выше у пациентов старше 60 лет ($64,2 \pm 4,9$), а также в группе больных крови были сопоставимы и достоверно не различались. **Выводы:** при обнаружении в костном мозге и периферической крови более 20% бластных клеток диагноз ОМЛ с большой уверенностью можно считать подтверждённым.

Ключевые слова: тромбоцит, эритроцит бластные клетки, острый миелоидный лейкоз, гиперлейкоцитоз, анемия.



ТИЗИМЛИ СКЛЕРОДЕРМИЯЛИ БЕМОРЛАРДА ЭРТА АТЕРОСКЛЕРОЗНИНГ ХАВФ ОМИЛЛАРИ ВА ЯЛЛИҒЛАНИШ МЕДИАТОРЛАРИНИНГ ЎЗARO МУНОСАБАТИНИ БАҲОЛАШ

Ганиева Н.А., Ризамухамедова М.З., Бекенова Г.Т.

ОЦЕНКА ВЗАИМОСВЯЗИ ФАКТОРОВ РИСКА РАННЕГО АТЕРОСКЛЕРОЗА И МЕДИАТОРОВ ВОСПАЛЕНИЯ У БОЛЬНЫХ СИСТЕМНОЙ СКЛЕРОДЕРМИЕЙ

Ганиева Н.А., Ризамухамедова М.З., Бекенова Г.Т.

EVALUATION OF FACTORS RELATED TO THE RISK OF EARLY ATHEROSCLEROSIS AND MEDIATORS OF INFLAMMATION AND SYSTEMIC SCLERODERMA

Ganieva N.A., Rizamukhamedova M.Z., Bekenova G.T.

Тошкент тиббиёт академияси

Цель: анализ взаимосвязи между факторами риска и медиаторами воспаления раннего атеросклероза у больных системной склеродермией. **Материал и методы:** в исследовании приняли участие 86 пациентов с диффузной формой системной склеродермии в возрасте от 18 до 50 лет (средний возраст $37,6 \pm 10,3$ года) со средней продолжительностью заболевания $10,7 \pm 7,9$ года. **Результаты:** частоту факторов риска раннего атеросклероза у больных системной склеродермией оценивали на основании ряда субъективных, анамнестических и объективных клинико-биохимических лабораторных анализов. При анализе сердечно-сосудистых факторов риска у пациентов с системной склеродермией установлено, что семейный анамнез, наличие артериальной гипертензии, повышенный уровень общего холестерина и триглицеридов были достоверно выше, чем у лиц контрольной группы. **Выводы:** факторы риска раннего атеросклероза, повышение индекса атерогенности, уровня холестерина и триглицеридов, выявлены у 89,5% больных системной склеродермией. У 38,4% больных, т.е. почти у 1/3, наблюдалось 5 факторов риска и более.

Ключевые слова: системная склеродермия, ранний атеросклероз, факторы риска, медиаторы воспаления.

Objective: To analyze the relationship between risk factors and inflammatory mediators of early atherosclerosis in patients with systemic scleroderma. **Material and methods:** The study involved 86 patients with a diffuse form of systemic scleroderma aged from 18 to 50 years (average age 37.6 ± 10.3 years) with an average disease duration of 10.7 ± 7.9 years. **Results:** The frequency of risk factors for early atherosclerosis in patients with systemic scleroderma was assessed based on a series of subjective, anamnestic and objective clinical and biochemical laboratory tests. When analyzing cardiovascular risk factors in patients with systemic scleroderma, it was found that family history, the presence of arterial hypertension, elevated levels of total cholesterol and triglycerides were significantly higher than in the control group. **Conclusions:** Risk factors for early atherosclerosis, increased atherogenicity index, cholesterol and triglyceride levels, were identified in 89.5% of patients with systemic scleroderma. In 38.4% of patients, i.e. Almost 1/3 had 5 or more risk factors.

Key words: systemic scleroderma, early atherosclerosis, risk factors, inflammatory mediators.

Тизимли склеродермиянинг (ТСД) турли оғирлик ва прогрессивланиш даражалари билан кечишида кўпгина беморларда ички аъзолар шикастланиши туфайли юзага келадиган асоратлар одатда ўлимга сабаб бўлиб қолади [1-3,8]. Бевосита ТСД оқибатида ривожланадиган юракнинг бирламчи шикастланиши миокард, перикард ва клапан апаратининг ўзгариши билан намоён бўлади [6,9]. Беморларда кардиал патологиялар иккиламчи шикастланишлар сифатида ўткир склеродермик буйрак ва ўпка гипертензияси таъсирида ҳам пайдо бўлиши мумкин [2,10]. ТСД даги васкулопатиялар юрак-қон томир тизимидаги турли ўзгаришларнинг ривожланишига хисса қўшиши мумкин бўлган микроциркулятор тўрни қайта тузилиши билан тавсифланади [4-5,8]. Тизимли склероз учун характерли эндотелиал дисфункция ва гемореологик бузилишлар ҳам атеросклерознинг эрта ривожланиши учун хавф омиллари ҳисобланади [7-10].

Тадқиқот мақсади

Тизимли склеродермия билан касалланган беморларда эрта атеросклерознинг хавф омиллари ва

яллиғланиш медиаторларининг ўзаро боғлиқлигини таҳлил қилишдан иборат бўлди.

Материал ва усуллар

Клиник тадқиқот 2021-2023 йилларда Тошкент тиббиёт академиясининг кўп тармоқли клиникаси ревматология ва артрология, кардиоревматология ҳамда артрологик ихтисослаштирилган амбулатор даволаш курси бўлимларида олиб борилди. Тадқиқот ишига 18 ёшдан 50 ёшгача (ўртача ёши $37,6 \pm 10,3$ ёш) бўлиб, касалликнинг давомийлиги ўртача $10,7 \pm 7,9$ йил бўлган ТСДнинг диффуз шакли билан касалланган 86 нафар беморлар жалб этилди. Уларнинг 75 (87,2%) тасини аёл ва 11 (12,8%) тасини эркаклар ташкил қилди. Назорат гуруҳи сифатида ТСД билан касалланган беморларга жинси, ёши, хавф омиллари, артериал қон босими, липид спектри бўйича мутаносиб бўлган 26 (86,7%) нафар аёл ва 4 нафар (13,3%) эркакдан иборат 30 та соғлом шахслар олинди. Тадқиқотга жалб этилган барча беморлар даво турига кўра уч гуруҳга ажратилди: 1-гуруҳга (n-34) мансуб беморларга кўрсатмага кўра ТСД касаллигини даволаш стандартлари тавсияси бўйи-

ча анъанавий даво, 2-гуруҳ (n-29) беморларга кўрсатмага кўра ТСД касаллигини даволаш стандартлари тавсияси бўйича анъанавий давога қўшимча статин (аторвастатин препарати 20-40 мг миқдорда 6 ой муддатга), 3-гуруҳга (n-23) кўрсатмага кўра ТСД касаллигини даволаш стандартлари тавсияси бўйича анъанавий давога ҳамда статинга қўшимча моноклонал антитана препарати ҳисобланган тоцилизумаб схема бўйича (8 мг/кг дозани инъекция шаклида ҳар 4 ҳафтада бир марта) 6 ой муддатга буюрилди. Тадқиқотга олинган ҳар гуруҳ беморларидан даводан олдин ва даводан кейин умумклиник (умумий қон таҳлили, умумий пешоб таҳлили), биокимёвий (АлТ, АсТ, билирубин, мочевино, креатинин, умумий оқсил), липид спектри кўрсаткичлари (ХС, ЗПЛП, ЗЮЛП, ТГ), иммунологик текширувлар (СРО, РО) ва махсус лаборатор таҳлиллар асосида қон зардобиди цитокин (ИЛ-6) текширилди. ИЛ-6 миқдори Республика Ихтисослаштирилган Педиатрия Илмий-амалий тиббиёт маркази лабораториясида қон зардобиди иммунофермент таҳлилини Human ИЛ-6 ELISA 1 x 96-Well Strip Microplate ускунаси ёрдамида аниқланди. Бунга кўра, ИЛ-6 миқдори 0-10 пг/мл гача нормал кўрсаткич деб олинди.

Шунингдек, ЭКГ, ЭхоКГ, кўкрак қафаси рентгенографияси, ички аъзолар УТТси, кўрсатмага кўра ЭГДФС, уйку артериясини доплерографияси текширувлари ўтказилди. Қонда липид спектри кўр-

саткичлари HUMAN (Germaniya) ускунасида ХС, ЗПЛП, ЗЮЛП, ТГ аниқланди. Эрта атеросклероз белгиларини аниқлаш учун иккала уйку артериясини доплерографияси Samsung Medison SonoAce X6 (CHINA) ускунасида амалга оширилди. Томирларни атеросклеротик зарарланиши мезони қилиб, интима медиакомплекси (ИМК) қалинлигини ортиши (0,9 дан 1,2 ммгача) ва атеросклеротик пиллакчанинг (ИМКни маҳаллий катталашши $\geq 1,2$ мм) аниқланиши олинди. Ушбу текширув орқали ўнг ва чап уйку артерияларининг ИМК қалинлиги текширилди ҳамда уларнинг ўртачаси ҳисобланди. Шу орқали томирларнинг атеросклеротик шикастланишига баҳо берилди.

Натижалар ва муҳокама

ТСД билан касалланган беморларда эрта атеросклерознинг хавф омилларини учраш частотаси бир қатор субъектив, анамнестик ва объектив клиник-биокимёвий лаборатор таҳлиллар асосида баҳоланади. Унга кўра, ТСД билан касалланган беморларда юрак қон - томир хавф омилларини учраш сони бўйича таҳлил қилинганда, тадқиқотимизга жалб қилинган беморлар орасида оилавий анамнез, артериал гипертензия, умумий ХС ва ТГ миқдорининг ортиши назорат гуруҳига нисбатан ишончли равишда юқори эканлиги аниқланди ($p < 0,05$) (1-жадвал).

1-жадвал


Тизимли склеродермияли беморларда юрак қон - томир хавф омилларини учраш сони

Юрак қон - томир хавф омиллари	ТСД ли беморлар, n=86		Назорат гуруҳи, n=30	
	n	%	n	%
Чекиш	10	11,6	3	10
Оилавий анамнез (АГ, ЮИК)	49	56,9	9	30
Менопауза	26	30,2	7	23,3
Тана вазни индекси $> 25 \text{ кг/м}^2$	26	30,2	13	43,3
Қорин айланаси $> 88 \text{ см}$	31	25,6	11	36,7
Артериал гипертензия	59	68,6	8	26,7
ХС $> 5 \text{ ммол/л}$	75	87,2	12	40
ЗПЛП $> 3 \text{ ммол/л}$	81	94,1	13	43,3
ЗЮЛП $< 0,9 \text{ ммол/л}$	63	73,3	0	0
ТГ $> 1,8 \text{ ммол/л}$	83	96,5	9	35,3
АК Э:4,0 А:3,4 ммол/л гача	85	98,8	2	6,7

Изоҳ: ХС – холестерин, ЗПЛП - зичлиги паст липопротеид, ЗЮЛП - зичлиги юқори липопротеид, ТГ – триглицерид, АК – атерогенлик коэффициенти ушбу ва бошқа жадваллар учун.

ТСД юрак қон томири асоратларини юқори кўрсаткичда учраши билан тавсифланадиган касаллик ҳисобланади. 1-расмда кўрсатилганидек, ТСДли беморларда эрта атеросклерознинг хавф омиллари учраши бўйича таҳлил ўтказилганда, тадқиқот гуруҳларидаги беморлардан 77(89,5%) нафарида, назорат гуруҳида эса 17(56,7%) нафарида эрта атеросклероз хавф омиллари аниқланди.

1-3 тагача хавф омили 32,5% беморларда, 18,6% да 3-5 тагача ва 5 дан юқори хавф омили 38,4% да учраган бўлиб, 10,5% беморларда хавф омиллари кузатилмади. Назорат гуруҳида эса 1-3 тагача хавф омили 26,7% да, 3-5 тагача 13,3% ида ва 5 дан ортиқ эрта атеросклерознинг хавф омили эса 16,7% ида қайд этилди (1-расм).




1-расм. Беморлар ва назорат гуруҳида юрак қон - томир хавф омиллари таҳлили (%)

Шу билан бирга, ТСДли беморларда эрта атеросклероз ривожланишида қондаги липид алмашинувининг бузилиши ҳам муҳим аҳамиятга эга. Унга кўра, 1-гуруҳ беморларида назорат гуруҳига нисбатан липид спектрининг даводан олдинги ва кейинги барча кўрсаткичлари ишончли ўзгарган бўлиб, 6 ойлик даволанишдан сўнг кўрсаткичлар даволаш бошига нисбатан ишончсиз ўзгарди. 2-гуруҳда эса қийматлар назорат гуруҳига нисбатан ишончли ўзгарган бўлса, даволанишдан сўнг ХС, ЗПЛП, АКни кам ишончли ($p < 0,05$) пасайиши ва ТГ, ЗЮЛП ни ишончсиз ўзгарганлиги кузатилди. 3-гуруҳ беморларида 6 ойлик даволанишдан сўнг ХС, ТГ, ЗПЛП ва АК ни даволаниш бошидагига нисбатан ишончли ($p < 0,01$) камайганлиги, ЗЮЛП ни эса ишончли ($p < 0,01$) ошиб, меъёрий кўрсаткичларни намоён этганлигига гувоҳ бўлдик.

Тизимли иммун яллиғланиш касалликларининг асосий маркёри ҳисобланган ИЛ-6 цитокинини ТСД

билан оғриган беморлар қон зардобиди текширилиши, унинг ўзгаришларини баҳолаш ва даволаш фонидаги динамикасини кузатиш мазкур касаллик прогнозида алоҳида аҳамият касб этади. Унга кўра, натижаларга статистик ишлов берилганида тадқиқот бошидаги қийматлар барча гуруҳларда назорат гуруҳига нисбатан ишончли ($p < 0,001$) ошгани кузатилди. Бу мазкур яллиғланиш маркёрини ТСД касаллиги ташхисотида ишончли мезон эканлигидан далолат беради.

ИЛ-6 миқдорини касаллик фаоллиги ва кечиши билан боғлиқ ҳолда ўзгариши таҳлил қилинганда, ТСДли беморларда касаллик фаоллиги ортгани сари, ИЛ-6 миқдорини кўпайиши аниқланган бўлса, касаллик кечиши бўйича баҳоланганда эса касаллик ўткир кечишида ИЛ-6 кўрсаткичини юқорилиги кузатилди (2-3-расм).




2-3-расм. Интерлейкин - 6 миқдорини касаллик фаоллиги ва кечиши билан боғлиқ ҳолда ўзгариши (пг/мл)

ИЛ-6 цитокинини липид спектр кўрсаткичлари ва СРО билан корреляцион боғланиши аниқланган бўлиб, ИЛ-6 ва СРО, атеросклероз хавф омилларидан ХС, ТГ, ЗПЛП лар орасида мусбат ва ЗЮЛПлар орасида эса манфий корреляцион боғлиқлик мавжудлиги тафовут этилди (4-расм).

Шундай қилиб, ТСД ли беморларда СРО ва ИЛ-6 маркёрларини атероген липопротеинларга тўғри корреляцияланиши ҳамда антиатероген липидпротеинларни тескари корреляцияланиши нафақат ревматология клиник амалиётида, балки бошқа соҳаларда ҳам ўз тасдиғини топган. Кардиология клиник амалиёти-

дан маълумки, ЗЮЛПлар ЗПЛП оксидланишини ингибирайди, моноцитлар миграциясини пасайтиради ва артерия деворидаги хужайралардан ХС ажралишини рағбатлантиради. Бу атеросклероз ривожланишининг секинлашишига олиб келади.



4-расм. Интерлейкин - 6 цитокинини липид спектр кўрсаткичлари ва С-реактив оқсил билан корреляцион боғланиши

Хулоса

Тизимли склеродермия билан касалланган беморларнинг 89,5% да эрта атеросклероз хавф омиллари аниқланди, улардан асосан атерогенлик индексининг, холестерин ва триглицерид миқдорининг ошиши аниқланди. 38,4% беморларда яъни, деярли 1/3 қисмида хавф омилларининг 5та ва ундан юқори учраши кузатилди. Анъанавий хавф омилларидан оилавий анамнез, артериал гипертензия, гиперлипидемия қайд этилиб (Фредриксон таснифи бўйича IIb ва IV тип) устунлик қилди. Тизимли склеродермия билан касалланган беморларда ИЛ-6 ва СРО, атеросклероз хавф омилларидан тана вазни индекси, ХС, ТГ, ЗПЛП лар орасида мусбат ва ЗЮЛП лар орасида эса манфий корреляцион боғлиқлик мавжудлиги тафовут этилди. Тизимли склеродермияли беморларда моноклонал антитана препаратларининг юрак қон - томир тизимига ижобий таъсири аниқланди, яъни, чап қоринча қон отиш фракциясини 6,1% га ортиши ва ИМК қалинлигини 8,8% га камайиши билан намоён бўлди. Шу билан бирга, даво таъсирида касаллик фаоллигининг пасайиши натижасида дислипидемия кўрсаткичларини ишончли равишда ўзгаришига эришилди (ХС 18,4%, ТГ 54%, ЗПЛП 31,8%, АК 43,8% га пасайиши ва ЗЮЛП 28,2% га ортиши) ва атеросклерознинг авж олишини олди олинди.

Адабиётлар

1. Антипова В.Н., Гончарова Л.Н. Атеросклероз и кардиоваскулярный риск при ревматических заболеваниях // Клиническая медицина Ульяновский медико-биологический журнал. -2018.-№ 3.- С. 8-18.
2. Арипова Н.А., Джураева Э.Р., Ганиева Н.А., Зияева Ф.К., Исакова М.Б. Тизимли склеродермиянинг турли кечиш вариантларида интерлейкин-4 даражасини баҳолаш // Тошкент тиббиёт академияси ахборотномаси. -2023. - №5. - 25-29б.
3. Ганиева Н.А., Арипова Н.А., Джураева Э.Р. Комбинированная терапия синдрома Рейно при системной склеро-

Цель: оценка эффективности и безопасности препарата СЕК при лечении пациентов с аксиальным спондилоартритом. **Материал и методы:** в исследование были включены 38 пациентов (28 мужчин, 10 женщин), находящихся на лечении в амбулаторном отделении ревматологии и специализированной артрологии многопрофильной клиники Ташкентской медицинской академии. 29 из них соответствовали модифицированным критериям Нью-Йорка, 9 – критериям ASAS 2009. **Результаты:** на фоне терапии с СЕК отмечалась положительная клиническая эффективность по индексам BASDAI и BASMI, а также положительная динамика функциональной активности опорно-двигательного аппарата, которая оценивалась по индексам активности позвоночника и индекса BASFI. Переносимость СЕК была удовлетворительной. Нежелательные явления СЕК наблюдались у 23,7% пациентов. **Выводы:** у пациентов, получавших СЕК, было достигнуто улучшение состояния опорно-двигательного аппарата, что подтверждалось динамикой показателей подвижности позвоночника. Переносимость СЭК пациентами была удовлетворительной.

Ключевые слова: аксиальный спондилоартрит, ИЛ-17А, секукинумаб, лечение.

Objective: To evaluate the effectiveness and safety of SEC in the treatment of patients with axial spondyloarthritis.

Material and methods: The study included 38 patients (28 men, 10 women) undergoing treatment in the outpatient department of rheumatology and specialized arthrology of the multidisciplinary clinic of the Tashkent Medical Academy. 29 of them met the modified New York criteria, 9 met the ASAS 2009 criteria. **Results:** During therapy with SEC, positive clinical efficacy was noted according to the BASDAI and BASMI indices, as well as positive dynamics of the functional activity of the musculoskeletal system, which was assessed using the spinal activity indices and the BASFI index. SEC was well tolerated. Adverse events of SEC were observed in 23.7% of patients. **Conclusions:** Patients receiving SEK achieved an improvement in the condition of the musculoskeletal system, which was confirmed by the dynamics of spinal mobility indicators. SEC was well tolerated by patients.

Key words: axial spondyloarthritis, IL-17A, secukinimab, treatment.

Аксиал спондилоартрит (аксСпА) - спондилоартритлар (СпА) гуруҳига кирувчи сурункали яллиғланиш касаллиги бўлиб, сакроилиал бўғимларнинг ва/ёки умуртқа поғонасининг шикастланиши ва анкилоз ривожланиши билан тавсифланадиган, патологик жараёнга энтезлар ва периферик бўғимларнинг тез-тез қўшилиши билан кечадиган касаллик. АксСпАнинг тарқалиши 0,1-1,4% ни ташкил қилади, биринчи белгилар 45 ёшгача пайдо бўлади [1]. АксСпАда таянч-ҳаракат тизимининг шикастланиши беморларнинг ҳаёт сифати камайишига ва ногиронлигига олиб келади [2-4].

Ҳозирги вақтда АксСпА билан оғриган беморларни даволашда ривожланиш мавжуд - ремиссияга эришиш учун ностероид яллиғланишга қарши дориларнинг (НЯҚД) максимал дозалари, агар улар самарасиз бўлса, ўсма некрози омили-α ингибиторлари (ЎНО-α) қўлланилади [7]. Бундай терапия клиник ва лаборатория ремиссиясига эришишга имкон беради, аммо структур ўзгаришларнинг секинлашишига таъсирқилмайди [5, 6]. АксСпА дамушак-скелет тизимининг шикастланиши остеорезорбция ва остеопролиферация жараёнларининг ўзгариши билан характерланади [2-4]. АксСпА билан оғриган бемор-

ларда ЎНО-α ва интерлейкин-17А (ИЛ-17А) суякларни қайта қуриш жараёнини қўзғатувчи асосий молекулалар ҳисобланади.

Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда интерлейкин-17А ингибитори секукинумаб (СКАФО, "Novartis") АксСпАда фойдаланиш учун рўйхатга олинган. Шундай қилиб, АксСпАда остеопролиферация учун жавобгар бўлган молекулага таъсир қилиш мумкин бўлди [8].

Тадқиқот мақсади

АксСпА беморларни даволашда СЕК дори воситасининг самарадорлигини ва хавфсизлигини баҳолаш бўлди.

Материал ва усуллар

Тадқиқотда Тошкент тиббиёт академияси қўп тармоқли клиникасининг ревматология ва ихтисослашган артрологик амбулатор бўлимида даволанган 38 нафар АксСпАли беморлар (28 эркак, 10 аёл) киритилди. Тадқиқотга киритилган беморларнинг 29таси модификацияланган НьюЙорк критериясига жавоб берган бўлса, 9таси ASAS 2009 мезоналарига жавоб берди. Биз тадқиқотга сўнгги 3 ой давомида максимал дозаларда ностероид яллиғланишга қарши дорилар (НЯҚД), сульфасалазин, метотрексат, глюкокортикоидлар (ГК) қабул қилганига

қарамасдан самара бўлмаган ва касалликнинг фаол босқичи (BASDAI фаоллик индекси >4) 4 ҳафта давом этган беморларни жалб этдик. Тадқиқотга киририлган 38 та бемор СЕКни 150 мг дозада тери остига ҳар 4 ҳафтада қабул қилди.

Касалликнинг фаоллигини баҳолаш учун BASDAI (Bath Ankylosing Spondylitis Disease Activity Index) ва ASDAS (Ankylosing Spondylitis Disease Activity Score), функционал ҳолати - BASFI (Bath Ankylosing Spondylitis Functional Index) ва BASMI (Bath Ankylosing Spondylitis Metrology Index) индекслари ишлатилган. Энтезитлар сонини ҳисоблаш учун тасдиқланган MASES (Maastricht Ankylosing Spondylitis Enthesitis Score) энтезит индекси ишлатилди. Сўнгги ҳафтада умуртқа поғонасида ва бўғимлардаги оғриқлар визуал аналогли шкала (ВАШ) ёрдамида баҳоланди.

Лаборатор текширувлар қон ва сийдик клиник таҳлиллари, биокимёвий қон тестлари, С-реактив оксил (СРО) даражасини аниқлаш, HLA-B27ни аниқлаш орқали тақдим этилди.

Беморларнинг 34 тасида (89,5%) HLA-B27 позитив бўлди. Тос суяқларининг рентгенографияси сакроилиит (СИ) белгилари 29 та беморда аниқланди. Яллиғланишли бел оғриғи ва спондилоартритларнинг бошқа кўринишлари бўлган, лекин СИ нинг рентгенологик белгилари аниқланмаган 9 нафар беморда МРТ текширувда СИ белгилари тасдиқланди.

Тизимли кўринишлардан, кўзнинг шикастланиши (увейт, иридоциклит) - 7 та беморда (18,4%), иситма ва гемоглобиннинг 120 г/л гача пасайиши билан камқонлик 9 тадан беморда (23,7%), юрак зарарланиши (аритмия) 4 та (10,5%) беморда аниқланди.

Клиник ва лаборатор таҳлиллар динамикаси асосида ИЛ-17А ингибитори билан терапиянинг

ножўя томонлари қайд этилди. Терапиянинг самардорлиги 12-, 24- ва 48- ҳафталарда баҳоланди.

АксСпАнинг қисман ремиссияси мезонлари ВАШ (0-10) бўйича беморнинг умумий ҳолатини баҳолашни ўз ичига олади, оғриқ - охириги 2 кун давомида ВАШ балли (0-10), таянч-ҳаракат аппаратининг BASFI функцияси (0-10), эрталабки қарахатликнинг яққоллиги ва давомийлиги (BASDAI индексининг 5 ва 6-саволларининг ўртача қиймати). Қисман ремиссия - барча тўртта кўрсаткичнинг қийматлари 10 баллик тизимда 2 баллдан кўп бўлмаслиги лозим [3].

Натижаларни статистик қайта ишлаш Statistica 6.0 дастурий пакети ёрдамида (StatSoft, АҚШ), шу жумладан умумий қабул қилинган параметрик усуллар ва параметрик бўлмаган таҳлил билан биргаликда амалга оширилди. Таққослашда тақсимланиши одатдагидан фарқ қиладиган параметрлар учун иккита гуруҳ учун Mann-Whitney тести ишлатилди, натижалар медиан (Me) сифатида (25; 75%) тақдим этилади. Корреляция таҳлили Spearman усули бўйича ўтказилди. Фарқлар $p < 0.05$ да статистик аҳамиятга эга деб ҳисобланди.

Натижалар ва муҳокама

38та бемордан 29 нафари (76,3%) АС мезонларига жавоб берди (ўртача ёш $32,4 \pm 1,2$ йил) ва 9 (23,7%) норентгенологик аксиал спондилоартрит (нр-аксСпА) мезонларига жавоб берди (ўртача ёш $27,4 \pm 1,4$ йил). Иккала гуруҳда ҳам эркаклар аёлларга нисбатан кўпроқ (АС гуруҳида 22та эркак ва 7та аёл; нр-аксСпА да эса 6та ва 3 та). Иккала гуруҳдаги беморлар ўртасида касалликнинг бошланиши ёшида фарқлар кузатилмади ($25,6 \pm 1,0$ ва $25,2 \pm 1,1$). Иккала гуруҳдаги беморларнинг деярли 90%ида HLA-B27 антигени аниқланган (1-жадвал).

1-жадвал

АС ва Нр-аксСпА беморларнинг умумий характеристикаси

Кўрсаткичлар	АС (n=41)		Нр-аксСпА (n=12)	
	эркаклар (n=28)	аёллар (n=13)	эркаклар (n=7)	аёллар (n=5)
Ёш, йилларда	$36,6 \pm 1,0$	$36,2 \pm 1,2$	$25,9 \pm 1,4$	$29,7 \pm 2,4$
Касаллик бошлангандаги ёш, йилларда	$21,5 \pm 0,6$	$21,6 \pm 1,0$	$20,3 \pm 1,4$	$25,2 \pm 2,1$
Касаллик давомийлиги, йилларда	$14,6 \pm 0,6$	$15,1 \pm 1,1$	$3,9 \pm 1,8$	$4,4 \pm 1,0$
Ташхис қўйиш вақти, йилларда	$11,5 \pm 0,8$	$12,0 \pm 1,2$	$2,9 \pm 0,4$	$4,2 \pm 1,0$
HLA-B27-антиген, n (%)	25 (89,3)	12 (92,3)	6 (85,7)	5 (100)

СЕК билан даволаш учун беморларни танлаш Халқаро ASAS тадқиқот гуруҳи ишчи тавсияларига мувофиқ амалга оширилди, бунда ностероид яллиғланишга қарши дориларни (НЯҚВ) етарли даражада қўллашга қарамай давом этувчи доимий юқори касалликнинг фаоллигига асосланишини таклиф қилади. Шунингдек, периферик артрит /энтезит билан оғриган беморларда сулфасалазин/метотрексатнинг самарасизлиги ва глюкокортикоидлар (ГС) билан маҳаллий терапия самарасизлиги ҳам қайд этилди.

СЕК терапияси бошланишидан олдин барча беморларда кенг қамровли клиник ва лаборатория

текшируви, яъни ўпканинг рентгенологик текшируви ва тери ичи туберкулин тестини баҳолаш ўтказилди. Илгари сил касаллигига чалинганлар ёки туберкулин тести ижобий бўлган беморлар, шунингдек ҳар қандай фаол ёки тез-тез такрорланадиган, жиддий инфекциялар билан коморбид ҳолатларда ҳам тадқиқотга киритилмади.


СЕК терапияси бошланганидан 12 ҳафта ўтгач аниқ клиник ва лаборатор динамика: ЭЧТ ва СРО концентрациясининг 2 марта пасайиши, гемоглобин даражаси ошиши аниқланди. 24 ва 48 ҳафталик терапия давомида СЕК қабул қилган беморларда сезиларли даражада лаборатория ўзгаришлари куза-

тилди ва даволанишнинг 48-ҳафтаси охирида ушбу гуруҳда ЭЧТ 3 мартадан ортиқ, СРО даражаси - 6 марта ($p < 0,001$) пасайиш кузатилди (1-расм).


Касаллик BASDAI индексига кўра терапия самардорлигини таҳлил қилиш, даволаниш бошланганидан 12, 24 ва 48 ҳафта ўтгач ҳам АксСпАнинг клиник фаоллигининг сезиларли пасайишини кўрсатди.

СЕК қабул қилган беморларда даволашнинг 12-ҳафтаси охирида ўртача BASDAI қиймат $5,5 \pm 2,5$

ни ташкил этди, 24 ҳафтадан кейин - $4,3 \pm 2,0$ ва 48 ҳафтадан кейин - $3,8 \pm 2,0$ балл; 48 ҳафталик терапиядан сўнг янада аниқ динамика қайд этилди. Қисман ремиссия (BASDAI < 4 балл) 24 беморда эришилди (64%) (2-расм). Кузатув охирига келиб, фаоллик индекси СЕК билан даволанган беморларда 2 баробарга камайди.



1-расм. Секукинимаб билан даволаш фонида лаборатор кўрсаткичларнинг динамикаси



2-расм. АксСпА ли беморларда СЕК билан даво фонида BASDAI, BASFI ва BASMI индекслари динамикаси

ASDAS индексига кўра дастлаб юқори АксСпА фаоллиги 24та (63%) беморда аниқланган. Терапия бошланганидан 12 ҳафта ўтгач, СЕК билан даволанган беморларнинг 68,4%ида (38 тадан 26 тасида) АксСпА фаоллиги сезиларли даражада камайди ва 50%ида (38 дан 19 таси) минимал бўлди. 24 ҳафтадан сўнг яллиғланиш жараёнининг юқори фаоллиги 2 та (5,3%) беморда, ўртача - 18 та (47,3%) ва паст - 16 та (42,1%) беморларда сақланиб қолди.

BASFI индекси ёрдамида таянч-ҳаракат тизимининг функционал ҳолатини баҳолаш (2-расм). 12 ҳаф-

талик даволанишдан сўнг сезиларли ўзгаришларни кўрсатди. Ўртача қиймат 2 мартадан кўпроқ камайди ва СЕК гуруҳида $4,2 \pm 2,2$ баллни ташкил этди, 24 ва 48 ҳафталик даволанишдан сўнг, бошланғич кўрсаткичлар билан солиштирганда функционал қобилиятнинг барқарор яхшиланиши кузатилди. СЕК қабул қилган беморларда BASFI нинг паст даражаси 27 та (71%) беморда аниқланди, 9 та (~24%) беморда функционал бузилишлар кузатилмаган.

BASMI индексига кўра функционал ҳолатни баҳолашда ижобий тенденция кузатилди: СЕК би-

лан 12 ҳафталик даволанишдан кейин индекс $16,1 \pm 7,3$ га камайди, 24 ҳафтадан кейин - $14,1 \pm 5,3$ гача, 48 ҳафтадан кейин - $13,6 \pm 4,8$ гача (2-расм) камайди.

Даволаниш давомида АксСпАнинг периферик кўринишлари камайди (ШБС ва энтезитлар сони; 3-жадвалга қаранг).

2-жадвал

ИЛ-17А ингибитори билан даволанган беморларда АксСпА фаоллигининг кўрсаткичлари (n=38)

АксСпА фаоллигининг кўрсаткичлари	Дастлабки	48-ҳафтада	p
Белда оғриқ, баллда	6,0 (7,0; 9,0)	3,4 (1,0; 5,0)	<0,001
Белдаги тунги оғриқлар, баллда	7,0 (6,0; 8,0)	2,75 (1,25; 4,0)	<0,001
BASDAI, баллда	6,6 (4,4; 8,85)	3,2 (2,1; 7,6)	<0,005
ASDAS-CPO	3,8 (3,5; 4,4)	2,1 (1,26; 4,26)	<0,005
ШБС	2,0 (1,0; 4,0)	0,0 (0,0; 1,0)	<0,001
MASES, баллда	0 (0,0; 2,0)	0 (0,0; 20,0)	<0,000
CPO, мг/л	12,3±3,9	4,3±1,7	<0,001
ЭЧТ, мм/соат	19,3±6,7	12,4±6,9	<0,005
ЎНО-α, пг/мл	17,8±7,6	7,3±3,2	<0,001
ИЛ-17А, пг/мл	28,4±14,4	12,1±12,2	<0,001

Даволаш фонида АксСпА билан оғриган беморларнинг қон зардобиди ЎНО-α, ИЛ-17А нинг ўртача концентрацияси статистик жиҳатдан сезиларли даражада камайди ($p < 0,001$) ва йил давомида даво фонида ўзгармади (3-жадвалга қаранг). Тадқиқотимизда ASAS мезонларидан фойдаланган ҳолда СЕК билан даволаш самарадорлигини баҳолаш 24 ҳафталик терапиядан сўнг кўпчилик, яъни 28 нафар (73,7%) беморларда АксСпАнинг қисман ремиссияни кўрсатди.

Секукинимабнинг қабул қила олишлик ва хавфсизлигини баҳолаш. Бизнинг тадқиқотимизда ножўя таъсирларнинг (НТ) умумий частотаси 34% ни ташкил этди. СЕК гуруҳидаги 2 беморда

жиддий НТ аниқланди. Даволашнинг 12-ҳафтасида уларнинг бирида аллергия реакция: чап кўз қоғоғининг шишиши, томоқ оғриғи қайд этилди, шу сабабли препарат бекор қилинди. Иккинчи беморда 24 ҳафталик даволанишдан кейин периодонтитнинг ривожланиши СЕКни вақтинча, тўлиқ тикланишигача бекор қилиш учун сабаб бўлди.

12 ва 24 ҳафталик терапиядан сўнг, 1 нафар бемор клиник қон тестида нейтропенияни кўрсатди. 2 та беморда, ўтиб кетувчи жигар ферментлари даражасининг, норманинг юқори чегарасидан 2 мартадан кўпроқ ошиши қайд этилди. Гепатопротекторлар билан даволашдан сўнг бу кўрсаткичлар нормал ҳолатга қайтди, СЕК билан даволаш давом эттирилди.

3-жадвал

Секукинимаб билан даволаш фонида кузатилган ножўя таъсирлар (n)

Ножўя таъсирлар	12 ҳафта	24 ҳафта	48 ҳафта
Гепатотоксик: АЛТ, АСТ, ГГТП, ИФ	1	1	-
Гематологик: нейтропения	1	-	-
Креатинин даражасининг ошиши	-	1	-
Инфекцион асоратлар: назофарингит, ринит	-	2	-
Терига хос: эшакеми, аллергия дерматит	-	2	1
Иридоциклит рецидиви	-	1	1

Изоҳ: АЛТ – аланинаминотрансфераза, АСТ-аспартатаминотрансфераза, ГГТП-γ-глутаминотрансфераза, ИФ-ишқорий фосфатаза

Шундай қилиб, тадқиқотимизда НТ 9 та (23,7%) беморда кузатилди, ўлим ҳолатлари, хавфли ўсма-лар ёки сил касаллиги қайд этилмади.

Бизнинг тадқиқотимизда, СЕК билан даволаш бошланганидан 24 ҳафта ўтгач, микобактерияли инфекцияни истисно қилиш учун квантиферон тести, диаскинтест ва кўкрак қафаси рентгенограммаси ўтказилди. Таҳлил натижаларига кўра ижобий тест аниқланмади.

Хулоса

СЕК билан даволанган беморларда BASDAI ва BASMI индекслари бўйича аниқ клиник самарага эри-

шилди. Таянч-ҳаракат тизимининг функционал ҳолатида ҳам аниқ ижобий самара қайд этилди, бу умуртқа поғонаси ҳаракатчанлиги индекслари ҳамда BASFI индекси динамикаси билан тасдиқланди. СЕК нинг беморлар томонидан қабул қилиниши қониқарли бўлди. НТ даволашнинг бутун даври давомида 23,7% частота билан қайд этилди.

Адабиётлар

1. Дубинина Т.В., Гайдукова И.З., Годзенко А.А. и др. Рекомендации по оценке активности болезни и функционального состояния больных анкилозирующим спондилитом в клинической практике. Научно-практическая ревматология. - 2017.-№. 55(4).-С.344-50.

2. Пулатова Ш.Б., Набиева Д.А. Анкилозловчи спондилоартритли беморларда минераллар алмашинувининг бузилишини клиник-патогенетик аҳамиятини баҳолаш. Биомедицина ва амалиёт журнали. -2022. -7 жилд, -№5.- 104-116 б.
3. Эрдес Ш., Румянцева Д.Г., Смирнов А.В., Дубинина Т.В. Активность заболевания и двухлетняя динамика изменений крестцово-подвздошных суставов по данным инструментальных методов исследования у больных ранним аксиальным спондилоартритом когорты КОРСАР. Научно-практическая ревматология. -2019.-№57(2):-Р186-90.
4. Cozzi F, Galozzi P, Ciprian L, et al. Mud-bath treatment of seronegative spondyloarthritis: experience at the Euganean Thermal Area. Int J Biometeorol. -2020. -№64(6):-P937-41. doi: 10.1007/s00484-019- 01761-7. Epub 2019 Jul 24.
5. Kivitz A.J., Wagner U., Dokoupilova E., et al. Efficacy and safety of secukinumab 150 mg with and without loading regimen in ankylosing spondylitis: 104-week results from MEASURE 4 study. Rheumatol Ther. -2018 -№5(2):-P447-62. doi: 10.1007/s40744-018- 0123-5. Epub 2018 Aug 18
6. Pulatova Sh., Nabiyeva D., Abduazizova N., Mukhammadiyeva S., Agzamova G., Isayeva B. Clinical and pathogenetic values of disorders of mineral metabolism in ankylosing spondylitis // Philosophical Readings XIII.4. – 2022. – P. 20-28.
7. Xuan Y, Huang H., Huang Y., et al. The Efficacy and Safety of Simple-Needling Therapy for Treating Ankylosing Spondylitis: A Systematic Review and Meta-Analysis of Randomized Controlled Trials. Evid Based Complement Alternat Med.- 2020.-№13. 4276380. doi: 10.1155/2020/4276380. eCollection 2020
8. Yin Y, Wang M., Liu M., et al. Efficacy and safety of IL-17 inhibitors for the treatment of ankylosing spondylitis: a systematic review and meta-analysis. Arthritis Res Ther. -2020.-№. 12;22(1):-P111. doi:10.1186/s13075-020- 02208-w.

АКСИАЛ СПОНДИЛОАРТРИТЛИ БЕМОРЛАРДА ИЛ-17А ИНГИБИТОРИ САМАРАДОРЛИГИ ВА ХАВФСИЗЛИГИ

Набиева Д.А., Муҳаммадиева С.М., Хидоятлова М.Р., Ширанова Ш.А., Усмонова С.С.

Мақсад: аксиал спондилоартрит билан оғриган беморларни даволашда СЕК препаратининг самарадорлиги ва хавфсизлигини баҳолаш. **Материал ва усуллар:** тадқиқотда Тошкент тиббиёт Академияси кўп тармоқли клиникасининг ревматология ва ихтисослаштирилган артрология амбулатория бўлимида даволанаётган 38 бемор (28 эркак, 10 аёл) иштирок этди. Улардан 29 таси Нью-Йоркнинг ўзгартирилган мезонларига, 9 таси АСАС 2009 мезонларига жавоб берди. **Натижалар:** СЕК билан терапия фонида BASDAI ва BASMI индекслари бўйича ижобий клиник самарадорлик, шунингдек, орқа мия фаоллиги индекслари ва BASFI индекси билан баҳоланган таъинч-ҳаракат тизимининг функционал фаоллигининг ижобий динамикаси қайд этилди. СЕКни қабул қилиш қониқарли эди. Беморларнинг 23,7 % СЕКнинг салбий ҳодисалари кузатилди. **Хулоса:** СЕК олган беморларда мушак-скелет тизимининг ҳолатини яхшилашга эришилди, бу умуртқа ҳаракатчанлик кўрсаткичлари динамикаси билан тасдиқланди. Беморларнинг СЕКга нисбатан қабул қилиши қониқарли эди.

Калит сўзлар: аксиал спондилоартрит, ИЛ-17А, секукинимаб, даволаш.



АНКИЛОЗЛОВЧИ СПОНДИЛОАРТРИТИНГ ТУРЛИ ХИЛ ШАКЛЛАРИДА ЮРАК ЗАРАРЛАНИШИНИ БАҲОЛАШ

Пулатова Ш.Б., Набиева Д.А., Мирзажонов Г.С.

ОЦЕНКА ПОРАЖЕНИЯ СЕРДЦА ПРИ РАЗЛИЧНЫХ ТЕЧЕНИЯХ АНКИЛОЗИРУЮЩЕГО СПОНДИЛОАРТРИТА

Пулатова Ш.Б., Набиева Д.А., Мирзаджоннова Г.С.

ASSESSMENT OF HEART DAMAGE IN DIFFERENT COURSES OF ANKYLOSING SPONDYLOARTHRITIS

Pulatova Sh.B., Nabieva D.A., Mirzadzhonova G.S.

Тошкент тиббиёт академияси

Цель: изучение нарушений сердечного ритма у пациентов с анкилозирующим спондилоартритом, у которых наблюдается нарушение минерального обмена. **Материал и методы:** в исследовании приняли участие 60 пациентов старше 18 лет от 18 до 63 лет с анкилозирующим спондилоартритом. При постановке диагноза учитывались жалобы больных, анамнез заболевания и жизни, результаты объективного обследования, заключения лабораторных и аппаратных исследований. Мужчин было 58 (96,6%), женщин 2 (3,4%). Контрольную группу составили 10 здоровых лиц. **Результаты:** у больных аксиальным спондилоартритом часто встречаются нарушения ритма и проводимости сердца. **Выводы:** важно обращать внимание на сердечно-сосудистые факторы риска и заранее проводить лечебных мероприятия, направленные на снижение смерти от осложнений.

Ключевые слова: анкилозирующий спондилоартрит, поражение сердца.

Objective: To study heart rhythm disturbances in patients with ankylosing spondylitis who have impaired mineral metabolism. **Material and methods:** The study involved 60 patients over 18 years old, from 18 to 63 years old, with ankylosing spondylitis. When making a diagnosis, the complaints of patients, anamnesis of the disease and life, the results of an objective examination, the conclusions of laboratory and instrumental studies were taken into account. There were 58 men (96.6%), 2 women (3.4%). The control group consisted of 10 healthy individuals. **Results:** Patients with axial spondyloarthritis often experience cardiac rhythm and conduction disturbances. **Conclusions:** It is important to pay attention to cardiovascular risk factors and proactively implement therapeutic measures aimed at reducing mortality from complications.

Key words: ankylosing spondylitis, heart disease.

Анкилозловчи спондилоартрит (АС) - бўғимларнинг, асосан умуртқа поғонасининг сурункали тизимли яллиғланиш касаллиги бўлиб, апофизал бўғимларнинг (синовиал интервертебрал) анкилозланиши [10-13], синдесмофитларнинг шаклланиши (умуртқалар орасидаги кўприклар) ҳамда умуртқа бойламларининг кальцификацияси туфайли бўғимларнинг ҳаракатчанлигини чекланиши билан тавсифланади [2-5].

АСда ўлим умумий аҳолига нисбатан 1,5 баравар юқори бўлиб, асосан юрак-қон томир касалликлари, амилоидоз ва синишлар билан белгиланади [8, 9]. АСда юрак-қон томир патологиясининг ривожланиши учун энг муҳим хавф омиллини ЮЗЛП камайиши деб ҳисоблашади. ЮЗЛП холестерин даражасининг пасайиши яллиғланиш фаоллиги билан боғлиқ [1-4, 7]. Фаоллик юқори бўлганда С-реактив оқсил даражаси ва эритроцитлар чўкиш тезлиги кўрсаткичлари ошиши нафақат дислипидемияга, балки юрак-қон томир касалликлари кечишида салбий баъшоратига олиб келади [5, 6].

Тадқиқот мақсади

Анкилозловчи спондилоартритга чалинган беморларда минераллар алмашинувининг бузилиши кузатилган беморларда юрак шикастланиш хусусиятларини ўрганишдан иборат.

Материал ва усуллар

Тадқиқотда 60 нафар АСА билан касалланган 18 ёшдан катта бўлган беморлар иштирок этдилар. АСА ташхиси Рим (1961й.) ва Нью-Йорк (1966), Armor et all. (1995) ташхисий мезонлари асосида верификация қилинди. Ташхис қўйишда беморларнинг шикоятлари, касаллик ва ҳаёт анамнези, объектив текширув натижалари, лаборатория ва асбоб-ускуналар текширувлари ҳулосалари ҳисобга олинди. Уларнинг 58(96,6%) тасини эркак ва 2 (3,4%) тасини аёллар ташкил қилди. Беморларнинг ёши 18-63 оралиғида бўлиб, ўртача $40,15 \pm 1,3$ ни, эркаклар ва аёллар нисбати 9:1 ни ташкил этди. АСА билан касалланган беморларни Тошкент тиббиёт академиясининг кўп тармоқли клиникаси қошидаги ИАДК бўлимида диспансер кузатувида бўлганлар ҳамда ревматология, кардиоревматология бўлимларида даволанаётган беморларни ташкил қилди. Барча беморлар умумлаборатор текширувлардан ташқари яллиғланиш цитокинлари ИЛ-6 ва ФНО- α , қонда липидлар миқдори, тана вазни индекси ҳам текширилди. Назорат гуруҳига 10 та соғлом шахслар жалб қилинди.


Тадқиқотда иштирок этган барча беморлар қуйидаги текширувлардан ўтдилар: Касалликнинг фаоллик даражаси, БФЕ, рентгенологик босқичини ва УҚА, УСА, ҚБТ, МРТ, ЭКГ, ЭхоКГ текшируви олиб берилди. Ҳамма беморларда 12 тармоқли ЭКГ ва Эхо-КГ

ўтказилди. ЭКГ таҳлилида ҳамма ўзгаришлар эътиборга олинди ва айниқса ритм ва ўтказувчанликнинг бузилиши ўзгаришлар эътиборга олинди. Эхо-ГК текширувида эса деворлар қалинлашиши ва қопқоқлар дағаллашишига кўпроқ эътибор қаратилди.

Натижалар ва муҳокама

Тадқиқотга жалб қилинган АСАли барча беморлар ($n=60$) иккита гуруҳга ажратилгач, улар ҳам ёш,


жинс, касаллик давомийлиги, касалликнинг клиник шакли ва HLAB-27 антигенининг аниқланиши клиник тавсифланди. Тадқиқотга олинган беморларнинг ўртача ёши $31,5 \pm 1,4$ ёшни ташкил қилди. Беморларнинг жинси бўйича тақсимланишида 60 та беморнинг 58 та (96,6%) – эркаклар, 2 та (3,4%) – аёллар ташкил қилди (1-расм).



1-расм. Беморларнинг жинси ва ёши бўйича тақсимланиши (%)

Беморлар тўлиқ текширувлардан ўтказилиб бўлиб, касалликнинг клиник шакллари бўйича аксиал зарарланиш 30 (50 %) та беморда, аксиал зарарланиш билан биргаликда умуртқадан ташқари зарарланишлар артрит, дактилит, коксит кузатилган 30 (50 %) беморлар ажратилиб 2 та гуруҳ қилиб ажратилди. I гуруҳ беморларининг кўп қисми эркаклардан иборат бўлган бўлса (96,6%), аёл жинсдаги беморлар II гуруҳда кузатилмади.

Иккала гуруҳлар HLA-B27 антигени аниқланиши таҳлил қилинди, бунга кўра I гуруҳ беморлар, яъни аксиал шакли билан оғриган беморларда HLA-B27 антигени 89,9% ҳолларда, II гуруҳда, яъни эса аксиал зарарланиш билан биргаликда умуртқадан ташқари зарарланишлар артрит, дактилит, коксит кузатилган беморларда 88,2% ҳолда мусбат натижа олинди (2-расм). HLA-B27 антигенининг аниқланиши бўйича I гуруҳ беморлари устунликка эришди. Гуруҳлар орасида ишончлилик тавофут аниқланди ($p<0,05$).




Изоҳ: * $p<0,05$ гуруҳлар орасида ишончли тавофут

2-расм. Анкилозловчи спондилоартрит беморларнинг клиник кечишида HLA-B27 антигени аниқланиши (%)

Маълумки, ЎНО- α , ИЛ-6 қатор яллиғланиш олди цитокинларнинг гиперсекрецияси учун асосий индуктор вазифасини бажаради ҳамда зарарланган бўғимда иммун яллиғланиш жараёнининг ривожланиши ва инициациясида муҳим аҳамият касб этади (Сучков С.В. ва ҳаммуал., 2004; Vaughn J. A. ва ҳаммуал., 2001). АС патогенезида ЎНО- α , ИЛ-6 нинг зарурати шундан иборатки, касалликнинг клиник-лаборатор фаоллигини адалимумаб

ёрдамида пасайтириш орқали турғун ремиссияга эришиш мумкин (Ziolkowska M. ва ҳаммуал., 2003). Анкилозловчи спондилоартритли беморларда цитокинлар профилини баҳолашда асосан ЎНО- α , ИЛ-6 даражалари ва уларнинг назоратдаги кўрсаткичлари билан гуруҳлар орасида муносабат ўрганилди. Анкилозловчи спондилоартритли беморларни ташкил этган I ва II гуруҳ беморлар қон зардобиди ЎНО- α нинг кўрсаткичлари соғлом шахсларга нисба-

тан деярли уч баробарга, ИЛ-6 кўрсаткичлари эса соғлом шахсларга нисбатан деярли тўртдан етти баробарга, ишончли даражада ошганлиги қайд этилди. Аксиал спондилоартритнинг умуртқадан ташқари зарарланиши билан оғриган беморлар қон зардобидан I гуруҳ беморларнинг кўрсаткичларига нисбатан ЎНО-α даражалари ва ИЛ-6 даражалари нисбатан баландроқ эканлиги кузатилди [11,±1,32 пг/мл ва 15,3±0,25 пг/мл], ҳамда қийматлар орасида ишончлилик даражаси қайд этилди ($p<0,05$) (3-расм).



Изоҳ: * $p<0,05$ гуруҳлар орасида ишончли тафовут.

3-расм. Анкилозловчи спондилоартрит беморларнинг яллиғланиш цитокинларининг гуруҳлар бўйича тахлили (пг/мл)

АС беморларида юрак-қон томир хавфи омиллари бўйича гуруҳлар тахлили ўтказилди, бунда систолик артериал босим (САБ), диастолик артериал босим (ДАБ), артериал гипертензия (АГ) бошланган

ёши, тана вазни индекси (ТВИ), умумий холестерин, паст зичликдаги липопротеинлар (ПЗЛП), юқори зичликдаги липопротеинлар (ЮЗЛП), триглицеридлар (ТГ), жинс, АГ оилавий анамнези, юрак ишемик касаллиги (ЮИК) оилавий анамнези, зарарли одатларда сигарет чекиш асосий кўрсаткичлар қилиб олинди (1-жадвал).

Ушбу жадвалда кўриниб турибтики, АС беморларида юрак-қон томир хавфи омиллари II гуруҳда, яъни аксиал спондилоартрит умуртқадан ташқари зарарланиши билан шаклида САБ, ДАБ, АГ бошланган ёши, умумий холестерин, ПЗЛП I гуруҳга ва назорат гуруҳига нисбатан ишончли тафовут, ҳамда I гуруҳнинг ДАБ, АГ бошланган ёши, ПЗЛП кўрсаткичлари назорат гуруҳига нисбатан ишончли тафовут аниқланди ($p<0,05$).

4-расмда АС беморларда юрак-қон томир хавфи омиллари кўрсаткичлари тахлилда оилавий анамнезда АГ мавжудлиги, ЮИК касаллигининг мавжудлиги, зарарли одатлардан сигарета чекиш билан боғлиқ бўлиб, гуруҳлар орасида тахлил қилинди ва II гуруҳдаги беморларда ишончли тафовут билан фарқланди ($p<0,05$).

Тадқиқотдаги беморларда гуруҳлар бўйича юракдаги структуравий ўзгаришлар (юракнинг нормал геометрияси, концентрик ремоделлашув, концентрик гипертрофия ва эксцентрик гипертрофия) бўйича тахлили ўтказилди (5-расм). I гуруҳда 14 (46,6%) та бемор кузатилиб, II гуруҳда эса 7 (23,3%) беморда нормал геометрияси аниқланди ва ишончли тафовут билан фарқланди ($p<0,05$). Концентрик ремоделлашув, концентрик гипертрофия ва эксцентрик гипертрофия кўрсаткичлари гуруҳлар орасида тахлил ўтказилди ва II гуруҳдаги беморларда 3 (10%), 6 (20%) ва 14 (46,7%) беморда мос равишда ишончли тафовут билан фарқланди ($p<0,05$).

1-жадвал

Беморларнинг юрак-қон томир хавфи омиллари бўйича тахлили

Хавф омиллари	I гуруҳ	II гуруҳ	Назорат
САБ мм.сим.уст	123,24±11,81	125,28±15,6*^	122,5±10,8
ДАБ мм.сим.уст	78,21±7,96^	80,6±10,2*^	74,8±8,51
АГ бошланган ёш	34,07±11,37^	25,23±21,5*^	31,6±12,2
ТВИ, кг/м³	25,36±5,67	28,2±5,8	25,1±4,31
Умумий холестерин	5,4±2,61^	3,41±1,39*^	2,8±0,44
ПЗЛП, ммоль/л	3,4±2,64^	3,41±1,49*^	1,81±1,43
ЮЗЛП, ммоль/л	1,48±1,37	1,58±1,38^	1,49±0,39
ТГ, ммоль/л	1,58±1,38	1,5±1,36	1,52±1,4

Изоҳ: * $p<0,05$ I ва II гуруҳлар орасида ишончли тафовут.


^ $p<0,05$ I ва II гуруҳлар назорат гуруҳига орасида ишончли тафовут.

Бундан ташқари ЭхоКГда ўзгаришлар аниқланган (аортанинг қалинлашиши/кенгайиши, аорта ва ёки митрал қопқоқ табақаларининг қалинлашиши қайд этилган. Гуруҳлар I /II орасида тахлил қилинди: аорта асосининг дилатацияси 3/9 та беморда, аортал клапан қопқоқларининг дағаллашуви 2/6 та беморда, митрал клапан қопқоқларининг дағаллашуви 3/7 та беморда қайд этилди, гуруҳлар орасида тахлилда II гуруҳдаги беморларда ишончли тафовут билан фарқланди ($p<0,05$).

Анкилозловчи спондилоартритли беморларда юрак ритми ва ўтказувчанликнинг бузилиши гуруҳлар орасида тахлили ўтказилди, беморлар қоринча усти, қоринча экстрасистолияси (ЭС), политоп қоринча ЭС, ўтказувчанликнинг бузилишларидан эса Гисс тутамининг ўнг оёқчаси нотўлиқ блокадаси, чап оёқчаси олд шохи блокадаси, атрио-вентрикуляр блокадалар аниқланди. Қоринча усти ЭС II гуруҳ беморларда 17 (56,6%) кузатилиб, I гуруҳ беморларига 10 (33,3%) нисбатан ишончли тафо-


вут кузатилди ($p<0,05$), ҳамда худди шундай тафовут қоринча ЭС, политоп қоринча ЭС бузилишларида ҳам кузатилди, аммо назорат гуруҳида юрак ритми ва ўтказувчанлик бузилишлари кузатилмади. Ўтказувчанлик бузилишлари умумий сони ҳам II

гуруҳ беморларда 11 (36,6%), I гуруҳ беморларида 7 (23,2%)да аниқланди ва ишончли тафовут кузатилди ($p<0,05$). Аммо чап оёқчаси олд шохи блокадаси, атриовентрикуляр блокадалар кўрсаткичлари бўйича фарқлар аниқланмади.



Изоҳ: * $p<0,05$ гуруҳлар орасида ишончли тафовут.

4-расм. Тадқиқотдаги беморларнинг юрак-қон томир хавфи омиллари бўйича гуруҳларда тахлили (%)



Изоҳ: * $p<0,05$ гуруҳлар орасида ишончли тафовут.

5-расм. Беморларнинг юракдаги структураларнинг ўзгаришларининг тахлили (%).

2-жадвал

Анкилозловчи спондилоартритли беморларда юрак ритми ва ўтказувчанликнинг бузилиши (n=60)

Белгилар	I гуруҳ, n=30	II гуруҳ, n=30	Назорат, n=10
Қоринча усти ЭС	10 (33,3)*	17 (56,6)*	1 (10)
Қоринча ЭС	8 (26,6)	13 (43,3)*	-
Политоп қоринча ЭС	1 (3,3)	5 (16,6)*	-
Ўтказувчанлик бузилишлари умумий	7 (23,2)	11 (36,6)*	-
Гисс тутами ўнг оёқчаси нотўлиқ блокадаси	4 (13,3)	6 (20)*	-
Гисс тутами чап оёқчаси олд шохи блокадаси	1 (3,3)	2 (6,6)	-
Атриовентрикуляр блокада I дар.	2 (6,6)	3 (10)	-

Изоҳ: * $p<0,05$ гуруҳлар орасида ишончли тафовут

Хулоса

Аксиал спондилоартритнинг умуртқадан ташқари зарарланиш билан кечган шаклида соф аксиал спондилоартритга нисбатан яллиғланиш цитокинлари кўрсаткичлари, юрак қон-томир хавф омиллари, ЭхоКГда юрак ремоделлашуви кўрсаткичлари ҳам ўз навбатида баланд бўлди. Юракда ритми ва ўтказувчанлигининг бузилишлари аксариат ҳолда аксиал спондилоартритнинг умуртқадан ташқари зарарланиш билан кечган шаклида кўп учради. Бу хулосалар асосида АС беморларида умуртқадан ташқари зарарланиш билан кечган шаклида аксиал спондилоартритга нисбатан юрак қон-томир хавф омиллари юзага келиши ва уларнинг асоратларидан ўлим юзага келишни олдиндан башорат қилиниб, олиб бориладиган даво чораларига юрак қон-томир хавф омилларига эътибор қаратиш муҳимлиги алоҳида ўрин тутди.

Адабиётлар

1. Арипов А.Н., Набиева Д.А. Биомаркеры и алгоритм лабораторной диагностики ревматических заболеваний // «Метаболический синдром: патогенез, диагностика и лечение» тезисы Республиканской научнопрактической конференции.- 2011.- С.184.
2. Бочкова А.Г. Федеральные клинические рекомендации по диагностике и лечению анкилозирующего спондилита // Группа экспертов-разработчиков. - 2013. - 21 с. [электронный ресурс www.rheumatolog.ru в рубрике Экспертный совет МЗ России].
3. Галушко Е.А. Современный взгляд на патогенез спондилоартритов - молекулярные механизмы. // Научно - практическая ревматология. -2015. -Т. 53. -№ 3. -С. 299-307.
4. Годзенко А.А., Бочкова А.Г., Корсакова Ю.О., Бунчук Н.В., Мач Э.С. «Поражение сердца при анкилозирующем спондилите» Научно-практическая ревматология.-2009.- № 4.- 33-41 с.
5. Касимова М. Б., Пулатова Ш. Б. Сочетаемость ревматоидного артрита с другими заболеваниями //дни ревматологии в Санкт-Петербурге. – 2018. – С. 94-96.
6. Набиева Д.А. Взаимосвязи гиперурикемии и гиперлипидемии у мужчин первичной подагрой // Научный журнал молодая наука «Juvenisscientia» Санкт Петербург.-2016.-№ 1.-С. 27-29.
7. Ребров А.П., Гайдукова И.З. «Нарушения ритма и проводимости у больных анкилозирующим спондилитом (болезнью Бехтерева) и псориатическим артритом». Неотложная кардиология и кардиоваскулярные риски.-2017.- Т. 1.- №1.-С. 117-124.
8. Muhammadiyeva S.M., Nabiyeva D.A., Kengesbayeva M.S.

Ankilozlovch ispondilitning COVID-19 infeksiyasi fonida kechish xususiyatlari // Doktor axborotnomasi. -2022. – №3.1. (107). – 27-31 b.

9. Nabieva D.A., Nabieva D. A. Dyslipidaemia and cytokine-profileinpatient tswithgout: theroleof il-6, il-18 and hyperuricemia in the development of metabolic disorders :дис. – Tashkent Medical Academy, 2017.

10.Nabieva D.A., Muhammadiyeva S.M., Miraxmedova X.X., Kengesbaeva M.S. Ankilozlovchi spondilitda osteoporozni davolashda alfakal'sidolning samaradorligi // Toshkent tibbiyot akademiyas iaxborotnomasi. 2022. – №2. – 118-120 b.

11.Nabieva D.A. Dyslipidaemia and Cytokine Profile in patients wioth Gout: the role of IL-6, IL-18 and hyperurecemia in the development of metabolic disorders // Journal of Advances in Medicine and Medical research.-2017.- № (23.12.) . - 1-10.

12.Pulatova Sh., Nabiyeva D., Abduazizova N., Mukhammad-iyeveva S., Agzamova G., Isayeva B. Clinical and pathogenetic values of disorders of mineral metabolism in ankylosing spondylitis // Philosophical Readings XIII.4. – 2022. – P. 20-28.

13.Shakhnoza P., Abdumalikovna N. D. Анкилозловчи спондилоартритли беморларда минераллар алмашинувининг бузилишини клиник-патогенетик аҳамиятини баҳолаш // Journal of biomedicine and practice. – 2022. – Т. 7. – №.5.

АНКИЛОЗЛОВЧИ СПОНДИЛОАРТРИТНИНГ ТУРЛИ ХИЛ ШАКЛЛАРИДА ЮРАК ЗАРАРЛАНИШНИ БАҲОЛАШ

Пулатова Ш.Б., Набиева Д.А., Мирзажоновна Г.С.

Мақсад: минерал алмашинуви бузилган анкилозловчи спондилоартрит билан оғриган беморларда юрак аритмияларини ўрганиш. **Материал ва усуллар:** тадқиқотда 60 ёшдан 18 ёшгача бўлган 18 бемор анкилозловчи спондилоартрит билан касалланган 63 бемор иштирок этди. Таъхис қўйишда беморларнинг шикоятлари, касаллик тарихи ва ҳаёти, объектив текширув натижалари, лаборатория ва инструментал тадқиқотлар хулосалари ҳисобга олинди. 58 эркак (96,6%) ва 2 аёл (3,4%) бор эди. Назорат гуруҳи 10 соғлом шахслардан иборат эди. **Натижалар:** анкилозловчи спондилоартрит билан оғриган беморларда кўпинча юрак аритмияси ва ўтказувчанлик бузилиши кузатилади. **Хулоса:** юрак-қон томир хавф омилларига эътибор бериш ва асоратлардан ўлимни камайтиришга қаратилган терапевтик тадбирларни олдиндан амалга ошириш муҳимдир.

Калит сўзлар: анкилозловчи спондилоартрит, юрак зарарланиши.

МЕДИАТОРЫ ВОСПАЛЕНИЯ У БОЛЬНЫХ ОСТЕОАРТРИТОМ В СОЧЕТАНИИ С АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИЕЙ

Сагатова Д.Р., Набиева Д.А.

ARTERIAL GIPERTENZIYA BILAN BIRGALIKDA OSTEOARTRITLI BEMORLARDA YALLIG'LANISH VOSITACHILARI

Sagatova D.R., Nabieva D.A.

INFLAMMATORY MARKERS IN PATIENTS WITH OSTEOARTHRITIS AND ARTERIAL HYPERTENSION

Sagatova D.R. Nabieva D.A.

Ташкентская медицинская академия

Maqsad: arterial gipertenziya bilan birgalikda osteoartritli bemorlarda yallig'lanish vositachilarini aniqlash. **Material va usullar:** osteoartritning klinik va rentgenologik belgilari aniqlangan 58 nafar bemor tekshirildi. 1-guruhda artroz bilan og'rigan 35 bemor normal qon bosimi, 2-guruhda - arterial gipertenziya bilan birga artroz bilan og'rigan 23 bemor. Nazorat guruhi - qo'shma patologiyasi va arterial gipertenziyasi bo'lmagan 16 kishi. Bemor guruhlari jinsi va yoshi bo'yicha taqqoslangan. **Natijalar:** osteoartrit bilan og'rigan bemorlarda yallig'lanishga qarshi sitokinlar (IL-1 β , TNF- α , IL-6) kontsentratsiyasining oshishi va limfotsitlar-trombotsitlar yopishqoqligi faolligining oshishi kuzatildi. Yallig'lanishga qarshi sitokinlar darajasi va limfotsitlar-trombotsitlarning adezyon faolligi darajasi o'rtasida bog'liqlik aniqlandi. **Xulosa:** osteoartrit bilan og'rigan bemorlarda limfotsitlar-trombotsitlar yopishishini aniqlash yallig'lanishning og'irligining o'ziga xos bo'lmagan belgisi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: osteoartrit, endotelial disfunktsiya, sitokinlar.

Objective: To identify inflammatory mediators in patients with osteoarthritis in combination with arterial hypertension. **Material and methods:** 58 patients with identified clinical and radiological signs of osteoarthritis were examined. The 1st group consisted of 35 patients with osteoarthritis with normal blood pressure, the 2nd group – 23 patients with osteoarthritis in combination with arterial hypertension. Control group – 16 people without joint pathology and arterial hypertension. The patient groups were comparable by gender and age. **Results:** In patients with osteoarthritis, an increase in the concentration of pro-inflammatory cytokines (IL-1 β , TNF- α , IL-6) and an increase in the activity of lymphocyte-platelet adhesion were observed. A relationship was revealed between the level of pro-inflammatory cytokines and the degree of lymphocyte-platelet adhesion activity. **Conclusions:** In patients with osteoarthritis, determination of lymphocyte-platelet adhesion can serve as a nonspecific marker of the severity of inflammation.

Key words: osteoarthritis, endothelial dysfunction, cytokines.

Остеоартрит (ОА) – широко распространенная патология суставов. Проведенные в последние годы исследования патогенетических механизмов ОА позволяют рассматривать это заболевание как воспалительно-дегенеративный процесс с возникновением воспаления в клетках синовиальной оболочки, субхондральной кости и хрящевой ткани [9,11]. В пораженных суставах роль эффектора воспаления играют, главным образом, клетки синовиальной мембраны. Синовиоциты макрофагального типа секретируют протеазы и медиаторы воспаления. В качестве основных индукторов деструкции суставных тканей задействованы ИЛ-1 β , TNF- α , ИЛ-6 [6,8,13]. Роль регуляторного цитокина, угнетающего продукцию ИЛ-1 и снижающего ферментативную деградацию ткани, принадлежит ИЛ-4 [4]. Адгезивные процессы между тромбоцитами и лейкоцитами являются ведущими звеньями механизмов, обеспечивающих миграцию клеток в зону повреждения. Лимфоцитарно-тромбоцитарные агрегаты (ЛТА) принимают непосредственное участие в протекании местных иммунологических и гемостатических реакций, а также репаративных процессов, направленных на восстановление поврежденных тканей [14]. В ряде исследований описано патогенетиче-

ское и клиническое значение лимфоцитарно-тромбоцитарной адгезии (ЛТА) при различных патологических состояниях [2,3], однако аналогичных исследований межклеточного взаимодействия при ОА не проводилось.

Хроническая боль повышает активность таламических центров головного мозга и секрецию катехоламинов [1]. В свою очередь НПВП ингибируют синтез вазодилатирующих простагландинов, увеличивают реабсорбцию натрия в восходящем отделе петли Генле и, следовательно, снижают диурез [7]. Кроме того, при ОА даже без значительного воспалительного процесса наблюдается умеренная эндотелиальная дисфункция, сопровождающаяся эндотелиоцитемией [12].

Цель исследования

Определение медиаторов воспаления у больных остеоартритом в сочетании с артериальной гипертензией

Материал и методы

Обследованы 58 больных с выявленными клиническими и рентгенологическими признаками ОА. 1-ю группу составили 35 больных ОА с нормальным уровнем АД, 2-ю – 23 больных ОА в сочетании с артериальной гипертензией (АГ). Контрольная груп-

па – 16 человек без патологии суставов и АГ. Группы пациентов были сопоставимы по полу и возрасту (табл. 1). Все лица, включенные в исследование, дали информированное согласие на проведение ма-

нипуляций. В работу не включались пациенты с сопутствующими хроническими заболеваниями, в том числе с ИБС, ожирением, сахарным диабетом.

Таблица 1

Клиническая характеристика больных остеоартритом

Показатель	1-я группа	2-я группа
Число больных	35	23
Возраст, лет	38,3±7,2	42,5±2,2
Пол, абс. (%):		
- женщины	26 (74,3)	20 (87)
- мужчины	9 (25,7)	3 (13)
Длительность ОА, лет	4,5±3,4	6,2±4,6
Стадия ОА (по I. Kellgren), абс. (%)		
- I	10 (28,6)	2 (8,7)
- II	19 (54,3)	16 (69,9)
- III	6 (17,1)	5 (21,7)
Показатели АД, мм рт. ст.:		
- САД	120±8	145±10
- ДАД	75±5	95±12

У большинства пациентов (50%) наблюдался ОА коленных суставов, рентгенологически II и III стадии по I. Kellgren. 23% пациентов страдали полиостеоартритом. У 25% больных артроз сочетался с остеохондрозом различных отделов позвоночника. Синувит диагностирован у 23% обследованных.

Интерлейкины определяли методом иммуноферментного анализа с использованием наборов реагентов для количественного определения человеческих интерлейкинов в биологических жидкостях ЗАО «Вектор-Бест».

Для оценки функционального состояния иммунокомпетентных клеток применяли тест ЛТА по методу, предложенному Ю.А. Витковским и соавт. (1999). Количество лимфоцитарно-тромбоцитарных розеток подсчитывали в камере Горяева после получения общего пула лимфоцитов путем наложения гепаринизированной крови на урографин-фиколл (плотность 1,077) и центрифугирования при 1500 об/мин в течение 40 минут, после чего интерфазное кольцо забирали пипеткой.

Полученные данные обработаны методом вариационной статистики для несвязанных между собой наблюдений с помощью пакета программ Statistica 6. Распределение практически всех вариационных рядов не подчинялось критериям нормальности, поэтому использовались методы непараметрической статистики. Группы сравнивали попарно при помощи вычисления критерия Манна – Уитни. Корреляционный анализ выполнен с использованием коэффициента ранговой корреляции Спирмена. Достоверными считали различия между группами при $p < 0,05$.

Результаты и обсуждение

У пациентов обеих групп уровни провоспалительных цитокинов (ИЛ-1 β , TNF- α , ИЛ-6) достоверно превышали контрольные значения контролем (табл. 2). Эти показатели у больных ОА в сочетании

с АГ были выше, чем у пациентов с ОА с нормальным уровнем АД. Реализуя свои эффекты, цитокины (ИЛ-1 β , ИЛ-6) усиливают синтез матриксных металлопротеиназ (ММП), активируют ИЛ-1 β – зависимую цепь внутриклеточных реакций. В результате инактивируется ключевой фермент, опосредующий синтез глюкозаминов и усиливается деструкция хряща [5].

ИЛ-1 β обладает способностью модулировать уровень продукции нейромедиаторов и стимулировать симпатoadреналовую систему. TNF- α способствует повышению генерации свободных радикалов и, возможно, является причиной интенсификации процессов апоптоза эндотелия сосудов и инактивации оксида азота [12]. Вследствие этого ослабляется эндотелийзависимая релаксация сосудов. Регулируя воспалительную реакцию, ИЛ-1 β , TNF- α , ИЛ-6 стимулируют пролиферацию эндотелиоцитов, привлекают в очаг воспаления клетки крови, усиливают синтез коллагена фибробластами [10]. Эти эффекты вызывают развитие изменений в структуре сосудистой стенки, что может играть патогенетическую роль в повышении АД.

Способность провоспалительных цитокинов (ИЛ-1 β , TNF- α , ИЛ-6) изменять функцию эндотелия сосудов, модулировать уровень продукции нейромедиаторов и стимулировать симпатoadреналовую систему, вероятно, частично обуславливает развитие АГ при ОА. Также установлено, что у всех пациентов, в отличие от лиц контрольной группы, отмечается повышение концентрации регуляторного цитокина (ИЛ-4). При этом статистически достоверной разницы в концентрации ИЛ-4 между 1-й и 2-й группами не обнаружено. ИЛ-4 в патогенезе ОА осуществляет противовоспалительные эффекты путем угнетения продукции ИЛ-1, снижения уровня NO и NO-синтазы в хондроцитах, уменьшения ферментативной дегградации ткани [5].

Таблица 2

Показатели цитокинов (пг/мл) и ЛТА в крови больных ОА (медиана, 25-75-й перцентили)

Показатель	Контроль, n=16	1-я группа, n=35	2-я группа, n=24
ЛТА, %	8 (8-12)	22,5 ^a (19-26,5)	28 ^{ab} (23-34)
ИЛ-1 β	14,7 (12,3-16,8)	19 ^a (14,1-22,4)	23 ^{ab} (18,1-32,1)
TNF- α	8 (7,1-9,6)	10 ^a (8,5-12)	12,8 ^{ab} (11,7-14,3)
ИЛ-6	12,3 (11,3-13,9)	15,6 ^a (11,4-22,3)	22,6 ^{ab} (18,2-32,2)
ИЛ-4	2,8 (1,6-3,6)	4,3 ^a (2,4-6,2)	4,3 ^a (3-5,8)

Примечание. $p < 0,05$: а – по сравнению с контрольной группой; б – по сравнению с 1-й группой.

У больных обеих групп выявлено достоверное возрастание степени ЛТА, что свидетельствует об изменениях в клеточном иммунитете [2]. При проведении корреляционного анализа установлена взаимосвязь концентрации и провоспалительных цитокинов (ИЛ-1- β , TNF- α) и повышения адгезивного взаимодействия между лимфоцитами и тромбоцитами у больных ОА. Коэффициенты корреляции между уровнями ИЛ-1 β , TNF- α и ЛТА у пациентов 1-й группы составили 0,634 и 0,637, 2-й группы – 0,538 и 0,532.

Активированные тромбоциты, находясь на поверхности коллагена, обеспечивают первичный гемостаз и разворачивают проферментноферментный каскад свертывания крови. Одновременно с этим кровяные пластинки усиливают свой контакт с лимфоцитами (Т-хелперами) и стимулируют их с помощью высвобождающихся молекул ИЛ-1. Известно, что под влиянием последнего стимулируется секреция ИЛ-2, в присутствии которого розеткообразующая способность хелперно-индуцирующих клеток с интактными тромбоцитами увеличивается в 4 раза [2]. Это приводит к повышению адгезивного взаимодействия между лимфоцитами и тромбоцитами, что отражает усиление ЛТА.

Выводы

1. У пациентов с ОА повышение концентрации цитокинов свидетельствует о наличии воспалительного компонента в патогенезе заболевания. Наличие хронического воспаления, возможно, является одним из патогенетических факторов возникновения и формирования АГ у этих больных.

2. У больных обеих групп количества лимфоцитарно-тромбоцитарных агрегатов было выше контрольных значений, что указывает на изменения клеточного иммунитета. Тест ЛТА при данной патологии может служить неспецифическим маркером выраженности воспаления.

Литература

1. Зоткин Е.Г., Дыдыкина И.С., Лила А.М. Воспалительная теория старения, возраст-ассоциированные заболевания и остеоартрит // Рус. мед. журн. – 2020. – №7. – С. 33-38.
2. Набиева Д.А., Сагатова Д.Р., Раджапов М., Муминова Н.И. Роль эндотелиальной дисфункции в развитии остеоартрита у женщин в климактерическом периоде // Вестн. ТМА. – 2022. – №2. – С. 121-125.
3. Пулатова Ш.Б., Набиева Д.А. Анкилозловчи спондилоартритли беморларда минераллар алмашинувининг

бузилишини клиник-патогенетик аҳамиятини баҳолаш // Биомедицина ва амалиёт журнали. – 2022. – Т. 7, №5. – Б. 104-116.

4. Пулатова Ш.Б., Набиева Д.А. Анкилозловчи спондилоартритли беморларда минераллар алмашинувининг бузилишларини ҳаёт сифатига таъсирини баҳолаш // Неврология. – 2022. – №3 (91). – С. 16-18.

5. Рустамова У.М., Абзалова Г.Р., Умарова Р.Х., Валиева К.Н. Анализ результатов инструментальных исследований у женщин при остеопорозе и остеоартрозе // Гений ортопедии. – 2015. – №4. – С. 73-75.

6. Сагатова Д.Р. Климактерик даврдаги остеоартритли аёлларни даволашда биорегулятор дори воситаларнинг самарадорлигини баҳолаш // Вестн. ТМА. – 2023. – №5. – С. 33-37.

7. Стародубова А.В., Кисляк О.А. Ожирение как фактор риска сердечно-сосудистых заболеваний. Обзор литературы // Фарматека. – 2015. – №17. – С. 28-34.

8. Стребкова Е.А., Алексеева Л.И. Остеоартроз и ожирение // Науч.-практ. ревматол. – 2015. – Т. 53, №5. – С. 542-552.

9. Тоиров Э.С., Хамраев Х.Х., Исламова К.А. Остеоартроз: хавф омиллари, клиник, кечуви, диагноз мезонлари ва даволаш: Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2019. – 164 б.

10. Ganiyeva N.A., Rizamukhamedova M.Z., Nabyeva D.A., Aripova N.A. Clinic-diagnostic aspects of modern biomarkers of early atherosclerosis and fibrotic activity of systemic scleroderma // Asian J. Med. Princ. Clin. Pract. – 2021. – №4.

11. Mathiessen A., Conaghan P.G. Synovitis in osteoarthritis: current understanding with therapeutic implications // Arthritis Res. Ther. – 2017. – Vol. 19, №1. – P. 1-9.

12. Nguyen L.T. et al. Review of prospects of biological fluid biomarkers in osteoarthritis // International journal of molecular sciences. – 2017. – Vol. 18, №3. – P. 601.

13. Pulatova Sh., Nabyeva D., Abduazizova N. et al. Clinical and pathogenetic values of disorders of mineral metabolism in ankylosing spondylitis // Philosophical Readings. – 2022. – Vol. XIII, №4. – P. 20-28.

14. Sagatova D.R., Nabyeva D.A. Assessment of the efficiency of bioregulator drugs in the treatment of osteoarthritis in the climacteric period with endothelial dysfunction // J. Hunan Univer. (Nat. Sci.) – 2023. – Vol. 50, №07.

МЕДИАТОРЫ ВОСПАЛЕНИЯ У БОЛЬНЫХ ОСТЕОАРТРИТОМ В СОЧЕТАНИИ С АРТЕРИАЛЬНЫМ ГИПЕРТЕНЗИЕЙ

Сагатова Д.Р., Набиева Д.А.

Цель: определение медиаторов воспаления у больных остеоартрозом в сочетании с артериальной гипертензией. **Материал и методы:** обследованы 58 больных с выявленными клиническими и рентгенологическими признаками остеоартрита. 1-ю группу составили 35 больных остеоартритом с нормальным уровнем артериального давления,

